


84.4
6-84



Aka-uka
Grimm ertaklari
**Bo'ron
kampir**



GRIMM
ERTAKLARI

3



Kitob shu yerda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

Ilgarigi berilmalar miqdori _____

--	--



Aka-uka
Grimm ertaklari
**Bo'ron
kampir**

Olmon xalq ertaklari
2- kitob
Ikkinchi nashri



TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2018

UO'K: 398.21(430)
KBK 84(4Nem)
G-84

Olmon tilidan
Xurram Rahimov va Gulruh Rahimova tarjimai

Rassom Go'zalxon O'rinova

Grimm

G-84 Bo'ron kampir: ertaklar / Aka-uka Grimm. – Toshkent:
«O'zbekiston», 2018. Ikkinchi nashri. 96 b.
ISBN 978-9943-28-457-9

Ushbu kitobda aka-uka Grimmlarning saralangan ertaklari jamlangan. Ularni Grimmlar xalq og'zidan yozib olib, olmon adabiy tili normalariga moslashtirgach, dastlab 1812-yilda chop ettirishgan. Bugungi kunga qadar mazkur ertaklar 190 ga yaqin dunyo tillariga tarjima qilingan. Ularda olmon xalqining orzu-umidlari, orzularga yetishish yo'lida uchraydigan mashaqqatlar va ularni yengish yo'llari, adolat uchun kurash, do'stlik, Vatanga muhabbat, ahdga sadoqat kabi mavzular turli obrazlarda ifoda etilgan.

Sarguzashtlarga boy va quvnoq ertaklarni o'zida jamlagan mazkur mo'jaz xazina aka-uka Grimmlarning «Mittivoylar sovg'asi» va «Yalqov to'quvchi» nomli kitoblarining mantiqiy davomi hisoblanadi.

UO'K: 398.21(430)
KBK 84(4Nem)

ISBN 978-9943-28-457-9

© X. Rahimov, G. Rahimova (tarj.), 2015, 2018
© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2015, 2018

Bo'ron kampir

Bir bevaning ikkita qizi bo'lib, ular-
dan biri go'zal va mehnatsevar, ik-
kinchisi esa xunuk va yalqov ekan.
Beva ayol qizlarining ichida yalqovini yaxshi
ko'rar, chunki u o'z tuqqan qizi edi-da. O'gay
qiz uy ishlarining barchasini qilishga majbur
ekan. Bechora qiz har kuni ko'chadagi katta
quduq oldida o'tirib, ip yigirarkan. Tinim bilmay
ishlaganidan barmoqlari qonab ketarkan.

Bir gal urchuq qonga belanibdi. Qiz uni
yuvmoqchi bo'lib, quduqqa engashgan ekan,
urchug'i qo'lidan chiqib, quduq tubiga tushib
ketibdi. Qizcha ho'ngrab yig'lab yuboribdi,
o'gay onasining yoniga yugurib borib, bo'lgan
voqeani gapirib beribdi. O'gay ona qizni qattiq
urishibdi va g'azabga to'lib: «Urchuqni qan-
day tushirib yuborgan bo'lsang, shunday olib
chiq», debdi.

Qiz quduqning yoniga qaytib boribdi, urchuq-
ni u yerdan qanday qilib olib chiqish haqida o'ylab
boshi qotibdi. Jo'yali biror yechim topolmagan
bechora qizaloq onasining buyrug'ini bajarish
uchun o'zini quduqqa tashlabdi-yu, hushidan

ketibdi. Oradan biroz vaqt o'tgach, qizcha hushiga kelib qarasa, quyosh charaqlab, gullar turli-tuman bo'lib ochilib yotgan o'tloqda yotganmish.

Qiz o'tloq bo'ylab ketaveribdi, nihoyat, g'aroyib bir tandirga duch kelib qolibdi. Tandirning ichi to'la non emish.

– Qizcha, hoy qizcha, bizni tezroq uzib ol, bizni tezroq uzib ol, biz allaqachon pishganmiz, bo'lmasa kuyib ketamiz, – deya nola qilishibdi nonlar.

Jonkuyar qiz tandir yoniga borib, nonlarning barchasini birin-ketin uzib olibdi. Shundan so'ng u yana o'z yo'lida davom etibdi va bir daraxtga duch kelib qolibdi. Daraxtning shoxlari to'la olma ekan.

– Qizcha, hoy qizcha, daraxtni silkitgin, daraxtni silkitgin, biz allaqachon pishib yetilganmiz, – deyishibdi unga olmalar.

Shunda u daraxtni bir silkitgan ekan, uning mevalari xuddi yomg'ir yog'gandek yerga to'kilibdi. Qiz daraxt shoxida bitta ham olma qoldirmay silkitaveribdi. So'ngra tergan olmalarini bir joyga to'plab qo'yibdi-da, yo'lida davom etibdi. Nihoyat, u yurib-yurib kichkina bir uycha oldiga borib qolibdi. Qarasa, uychaning derazasidan bir kampir tashqarini kuzatib o'tirgan emish. Kampirning tishlari shu darajada katta-katta ekanki, qizaloq ularni ko'rib, qo'rqib ketibdi va qochmoqchi bo'libdi. Biroq kampir unga:

— Qo‘rqma, jonim bolam, qo‘rqma. Xohlasang, menikida qol. Uy yumushlarida menga yordam ber. Agar ishlarni ko‘ngildagidek bajarsang, seni taqdirlayman. Faqat o‘rin solishga diqqat qil. Parto‘shagimni shunday qoqqinki, parlari har tomonga to‘zib ketsin. Bunday paytda esa yer yuziga qor yog‘adi. Men Bo‘ron kampirman, — debdi.

Kampirning mehribon va xushmuomalaligi qizga ma‘qul kelibdi. Shuning uchun ham u Bo‘ron kampirnikida qolishga rozi bo‘libdi, uning xizmatini qilib yuraveribdi. U uy ishlari-ning barini Bo‘ron kampir aytganidek bajarar ekan. Ayniqsa, uning parto‘shagini shunaqa qattiq qoqar ekanki, to‘zigan parlar qor parchalaridek, har tomonga uchib ketarkan. Mehnatkash qiz kampirga yoqib qolibdi. U qizaloqni biron marta ham ranjitmabdi. Qiz Bo‘ron kampirnikida to‘kin-sochinlikda yashabdi.

Shu zaylda kun ketidan kunlar o‘taveribdi. Biroq vaqt o‘tgan sayin qizaloqning g‘amginligi orta boribdi. Nima uchun bunday holatga tushayotganini avvaliga uning o‘zi ham anglay olmabdi. Garchi Bo‘ron kampirnikida o‘z uyidagidan ming karra yaxshi yashayotgan bo‘lsa-da, u o‘zining qadrdon kulbasini sog‘ingan edi. Shunday g‘amgin kunlarning birida qiz Bo‘ron kampirga:

— Men yer ostidagi ushbu uyda qanchalar yaxshi yashamay, baribir bu yerda uzoq qola

olmas ekanman. Mening yer ustidagi o'zimizning uyimizga qaytish vaqtim yetdi, – debdi. Bo'ron kampir esa unga:

– Uyingni sog'inganing menga yoqyapti. Menga chin ko'ngildan sadoqat ila xizmat qilganing uchun seni o'zim yer yuziga chiqarib qo'yaman, – deya javob qaytaribdi.

U qizaloqning qo'lidan ushlab, katta darvoza oldiga olib boribdi. Darvoza ochilgach, qizning ustiga shovullab oltin yomg'ir yog'ibdi. Oltinlar qizga yopishib qolaveribdi. Natijada, qizning hammayog'i oltinga belanibdi.

– Bu senga yaxshi ishlaganing uchun, – debdi Bo'ron kampir va qizga quduqqa tushirib yuborgan urchug'ini qaytarib beribdi. Darvoza yopilib, qizaloq birdaniga yer yuzidagi o'z uyi yonida paydo bo'lib qolibdi. Qiz uy eshigi oldiga yetay deb qolgan ekan, quduq ustida turgan xo'roz uni ko'rib, shunday deb qichqiribdi:

Qu-qu-qu!
Oltin-zarga belangan,
Bizning qizimiz keldi.
Qu-qu-qu!

Qizaloq xo'rozning xonishini tinglab, uyiga – onasining oldiga kirib boribdi. Hammayog'i oltinga belanganini ko'rgan ona va singil uni iliq kutib olishibdi.



Qizaloq boshidan o'tgan voqealarning barini ularga so'zlab beribdi. Uning bunchalik boylik orttirganini ko'rgan o'gay ona o'zining shumshuk qiziga ham shunday baxt nasib etishini orzu qilibdi. Yalqov qiz quduq yoniga o'tirib, ip yigira boshlabdi. U urchuq qonga belanishi uchun, hatto barmog'iga nina ham sanchib ko'ribdi, tikan-ni changallab qo'llarini bazo'r qonatibdi. So'ngra qonga belangan urchuqni yuvish maqsadida qu-duqqa otib, ketidan o'zini ham suvga tashlabdi. U ham opasi singari ko'm-ko'k o'tloqqa tushib qolibdi va o'sha yo'lak bo'ylab yurib ketibdi. Yo'lida tandirga duch kelib qolibdi. Tandir ichi-da pishib yetilgan nonlar unga shunday nola qilishibdi:

– Bizni uzib ol, bizni uzib ol, bizlar allaqachon pishganmiz, bo'lmasa kuyib ketamiz. – Yalqov qiz esa ularga:

– Nima, sizlarni deb qo'limni iflos qilaymi endi? – deya tantiqlik qilib o'tib ketaveribdi.

Nihoyat, u olma daraxti yoniga kelib qolibdi. Daraxtda hil-hil pishgan mevalar ham unga umid ila mo'ltillab shunday deyishibdi:

– Oh, silkitgin bizni, silkit, biz allaqachon pishib yetilganmiz.

– Yo'q, silkitmayman, yana birortang bo-shimga tushib qolsangiz nima bo'ladi? – deb javob beribdi yalqov qiz va o'z yo'lida davom etibdi. U yurib-yurib Bo'ron kampirning uyiga yetib

kelibdi. Biroq kampirdan zarracha qo‘rqmabdi. Chunki uning ulkan tishlari haqida oldinlari ham eshitgan ekan. Birinchi kuni qiz o‘zining yalqovligini sezdirmabdi, kampir nima ish buyursa, hammasini bajaribdi. Biroq qaysi bir ishni qilishga kirishmasin, kampirning qancha oltin sovg‘a qilishi haqida tinimsiz o‘ylayveribdi. Ikkinchi kuni yalqovligi tutibdi, uchinchi kuni esa ikkinchi kundagidan-da oshirib yuboribdi, ertalab, hatto o‘rnidan turgisi ham kelmabdi. Bo‘ron kampirning yotog‘ini na ko‘ngildagidek tuzatibdi, na parto‘shagini yaxshilab qoqibdi. Bo‘ron kampirning esa qizga hadeb gapirib, tanbeh beraverish joniga tegibdi, nihoyat unga shunday debdi:

– Bas, ishlaganing yetadi!

Yalqov qiz esa bundan xursand bo‘lib, o‘z-o‘ziga: «Endi mening ham ustimga oltin yomg‘ir yog‘adigan bo‘ldi», deb o‘ylabdi. Bo‘ron kampir uni katta darvoza oldiga olib boribdi, biroq shumshuk qiz darvozadan chiqib ketayotganida, uning ustiga oltin o‘rniga bir qozon to‘la qora moy quyilibdi.

– Bu sening qilgan xizmatlaring uchun mukofot, – debdi Bo‘ron kampir va qizni yuqoriga – yer yuziga chiqarib yuborib, darvozani yopibdi. Yalqov qiz uyiga butun ust-boshi-yu badani qopqora moyga belanib qaytibdi. Quduq ustida turgan xo‘roz uni ko‘rib shunday deb qichqiribdi:

Qu-qu-qu-qu!
Bizning isqirt qizimiz,
Mana, uyga kelibdi.
Qu-qu-qu-qu!

Yalqov qizga yopishgan qora dog‘ qancha yuvib ketkazishga harakat qilishmasin, baribir yo‘qolmabdi. U umrining oxirigacha qora moyga belanganicha qolib ketibdi.



Omadli Hans

Hans yetti yil xo'jayininikida xizmat qilgach, unga:

– Xo'jayin, xizmat vaqtim tugab, ketadigan paytim ham yaqinlashdi, men endi o'z uyimga – onamning oldiga ketmoqchiman. Xizmat haqimni bersangiz, – debdi. Xo'jayin esa unga:

– Sen yetti yil davomida menga sadoqat bilan halol xizmat qilding. Xizmat qanday bo'lsa, haq to'lash ham shunga yarasha bo'lishi kerak! – deb javob qilibdi va Hansga kattaligi uning boshicha keladigan oltin yombini¹ hadya etibdi.

Hans cho'ntagidan ro'molini olib, unga yombini tugib, yelkasiga tashlabdi-da, uyiga qarab jo'nabdi. U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, bir payt yonidan otini o'ynatib o'tib ketayotgan otliqqa ko'zi tushibdi.

– Eh, ot minish qanday yaxshi! – debdi Hans otliqqa havasi kelib. – Otning ustida odam xuddi o'rindiqda dam olgandek maza qilib o'tiradi-da, toshlarga qoqilmaydi, poyabzali ham yirtilmaydi.

¹ *Yombi* – yaxlit quyma oltin yoki kumush.

Xohlagan manziliga bir zumda yetib oladi. Otlq esa bu soʻzlarni eshitib:

– Hoy Hans, nega piyoda yuribsiz? – deb soʻrabdi.

– Majburman-da, – debdi Hans, – buning ustiga mana bu zilday ogʻir yombini ham uyga olib borishim kerak. Ushbu ogʻir yukni deb boshimni ham qimirlata olmayapman. Yelkalarimni ezib yubordi bu yombi.

– Keling, – debdi otliq, – narsalarimizni oʻzaro almashamiz: men sizga otimni beraman, siz menga yombini berasiz.

– Jonim bilan, – debdi Hans, – lekin ogohlantirib qoʻyay, yombi juda ham ogʻir, siz buni koʻtarishga qiynalasiz. Shunda otliq tulporidan tushib, tillani olibdi. U Hansni otiga mindirib, jilovini qoʻliga tutqazib, shunday deb tayinlabdi:

– Agar ot tez yurishi kerak boʻlsa, «chuh», «chuh», «chuh» deb yuganini siltalab tortishingiz lozim, shunda u tezroq chopadi.

Hans xursand boʻlib otga minib, uni obdan choptiribdi. Ot yeldek uchar, bu ham yetmagandek, Hans tinmay «chuh», «chuh», degancha yuganni siltalarmish.

Ot nihoyatda tez chopganidan Hans oʻzini eplay olmay, bir zovurga yiqilib tushibdi. Otni esa sigirini yetaklab kelayotgan bir dehqon toʻxtatib qolibdi. Chuqurdan zoʻrgʻa sudralib chiqqan Hans tulporidan norozi boʻlib dehqonga debdi:

– Ot minishni havas qilmagan yaxshi ekan, ayniqsa, mana bunaqa oriq va bebosh ot bo'lsa, har qadamda qoqilaverib, egasini yiqitib keta-versa yomon ekan. Yiqilib bo'yning sinishi hech gap emas ekan-da. Men endi bu otni hech qachon minmayman. Sizning sigiringiz esa har qanday maqtovg'a loyiq. Sigiri bor odamning har kun uyida suti, yog'i va pishlog'i bo'ladi. Bitta shunaqa sigir uchun har qancha pul bergan bo'lardim!

Shunda dehqon:

– Unda siz aytganday bo'la qolsin. Agar mening sigirim sizga yoqib qolgan bo'lsa, uni sizga otingiz evaziga berishim, ya'ni almashishim mumkin, – debdi. Hans bu shartga mingdan-ming rozi bo'libdi. Dehqon bir sakrab otga minibdi-da, shoshilganicha ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Hans sigirini arqonidan yetaklab, yo'l-yo'lakay savdosi yurishganidan mamnun bo'lib, xayol surib ketaveribdi. «Bir burda nonim bo'lsa bo'ldi-da, boshqa nima ham kerak bo'lardi menga, endi xohlagan paytimda yog' va pishlog'im bo'ladi, chanqasam, sigirimni sog'ib, sutini ichaman. Og'ayni, senga yana nima kerak o'zi?», – debdi o'ziga-o'zi. U yo'lda bir mehmonxona-da to'xtab, yonidagi tushlik va kechki ovqatini yeb-ichib tamom qilibdi. Hamyonidagi oxirgi chaqalariga yarim qadah ichimlik olib ichibdi. So'ngra yana sigirini yetaklab, ona qishlog'i tomon yo'lga tushibdi. Tush paytiga yaqin kun qizib, jazirama avjiga chiqa boshlabdi. Bu paytda Hans yaylovning qoq o'rtasiga yetib qolgan ekan.

Ammo oldinda yana ancha yo'l borligi haqida o'y-lagan yigitchaning boshi qotibdi. U juda holdan toygan, tili qurib, tanglayiga yopishay deb qolibdi. «Buning iloji bor-ku, endi sigirni sog'ib, sutidan to'yib ichib olaman», — degan xayolni ko'nglidan o'tkazibdi Hans va sigirni qurib qolgan daraxtga bog'labdi. Sog'ish uchun chelagi yo'qligidan u charm qalpog'ini sigirning yelini tagiga qo'yib, sog'ishga o'tiribdi. Lekin u qancha urinmasin, bir tomchi ham sut sog'ib ololmabdi. Egasining sut sog'ish ilinjidagi harakatlaridan bezovta bo'lgan besabr hayvon orqa oyog'i bilan Hansning boshiga shunday tepibdiki, u zarb kuchidan yerga yiqilib tushibdi. Ancha vaqt o'ziga kelolmay, gandiraklab, qayerda yurganini ham bilmay qolibdi. Baxtli tasodifni qarangki, shu payt aravasiga cho'chqa bolasini ortib olgan bir qassob kelib qolibdi.

— Sizga nima bo'ldi? — so'rabdi u Hansning o'rnidan turishiga yordamlashaturib. Bechora jabrdiyda yigit esa bo'lgan voqeani so'zlab beribdi. Qassob unga o'zining suv to'ldirilgan shishasini uzatar ekan, shunday debdi:

— Suvdan iching, o'zingizga kelib oling! Sigingiz qarib qolibdi, endi u sut bermaydi, ha, u so'yishdan boshqa narsaga yaramaydi.

— Hay-hay, — debdi Hans boshini qashib, — kimning ham xayoliga kelibdi deysiz bunday fikr? Bunaqa molni so'yib, uyga go'shtini olib borganga nima yetsin, ancha go'sht beradi-da jonivor, biroq men mol go'shtini yoqtirmayman, u

cho'chqa go'shtiga o'xshab mazali emas, bunisi-ning ta'mi ham boshqacha bo'ladi-da!

– Menga qarang, Hans, – debdi qassob. – Sizga bo'lgan hurmatim tufayli ularni almashganim bo'lsin, sigiringizning o'rniga cho'chqani sizga qoldiraman.

– Yaxshiligingiz xudodan qaytsin! – debdi Hans va qassobga sigirni berib, aravadan cho'chqa bolasini tushirib, bo'ynidagi arqonidan yetaklab, yana o'z yo'lida davom etibdi.

Shu asnoda Hansning xayolidan hamma ishlari o'z ko'nglidagiday bo'layotgani haqidagi o'ylar o'tibdi. Ko'ngilsizlik yuz berib, sigirdan tepki yeganini aytmasa, hammasi joyida. Yuz bergan dilxiralik ortidan yana yaxshilik keldiku axir. Shunday xayollar og'ushida kelayotgan Hansning yo'lidan bir payt, qarasaki, qo'ltig'ida oppoq g'oz ko'tarib olgan bir qishloq yigiti chiqib qolibdi. Ikkovlari ham eski qadrdonlar singari bir-birlari bilan hangoma qilib ketibdilar. Hans yigitga o'zining omadli ekanligi haqida so'zlay ketibdi, har gal o'ziga ma'qul ayriboshlashlar qilganlarini gapirib beribdi. Yigit esa qo'lidagi g'ozni bir bolakayning cho'qintirish marosimiga olib borayotganini aytibdi.

– Buni bir ko'tarib ko'ring, – debdi u g'ozning qanotlaridan ushlab, – og'irligini qarang, ikki oydan beri boqildi-da o'ziyam. Kim buning qovurmasini yesa, og'zidan moy tomadi.

– Gapingiz to'g'riga o'xshaydi, – debdi Hans g'ozni bir qo'li bilan ko'targancha chamalab

ko'rib. — G'ozingiz rostdan ham semiz ekan, lekin mening cho'chqacham ham yomon emas! — Qishloqlik yigit cho'chqaning u yoq-bu yog'idan aylanib o'tibdi-da, boshini sarak-sarak qilib shunday debdi:

— Menga qarang, Hans! Cho'chqangizning biror siri borga o'xshaydi. Men hozirgina bir qishloqdan o'tib keldim. Shu qishloq oqsoqolnikidan bir cho'chqa o'g'irlanibdi. Qo'lingizdagi o'sha cho'chqami, deb qo'rqayapman! Odamlar hamma yoqdan uni izlashyapti. Ular sizni bu cho'chqa bilan ko'rib qolishsa bormi, qorong'i zindonga tashlashlari turgan gap!

Bechora Hans bu gaplarni eshitib, cho'chib ketibdi. — Ey xudoyim, endi nima qilaman? — debdi u hovliqib. — Iltimos, menga yordam bering, meni bu balodan qutqaring! Cho'chqamni olib, menga g'ozingizni bera qoling! — deya yalina ketibdi.

— Endi tavakkal qilishimga to'g'ri keladi, — debdi yigit unga javoban. — Axir, men sizning nohaq ayblanishingizga sababchi bo'lib qolishni istamayman, — debdi va g'ozini Hansga berib, o'zi cho'chqaning arqonidan yetaklab, bir zumda ovloq yo'l bo'ylab yurib, ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Bir tashvishdan qutulgan bechora Hans esa g'ozni qo'ltiqlab, qishlog'i tomon ketibdi. «Qanday yaxshi bo'ldi! — o'ylabdi u yo'lda. — Avvalambor, almashish men uchun ko'proq foy-

dali bo'ldi. Endi bu g'ozni maza qilib qovurib yeyman. Undan uch-to'rt oyga yetadigan yog', bir qop pat ham chiqadi, uni esa yostig'im ichiga solaman-da, maza qilib uxlayman. Bundan onam rosa xursand bo'ladi-da!» Shunday shirin xayollar ila Hans nihoyat bu yaqin atrofdagi so'nggi qishloqqa ham yetib kelibdi. Qarasa, bir charxchi ko'cha yuzida turib, hadeb charxini vizillatib aylantirar, turli asboblarni charxlab, g'ildiragining tovushiga qo'shilib, boshini tebratgancha xirgoyi qilayotgan emish:

Qaychimni charxlayman g'ir-g'ir-g'ir,
Choponim hilpirar g'ir-g'ir-g'ir...

Hansning unga havasi kelib, ancha vaqtgacha turgan joyida sukut qilibdi va unga shunday debdi:

– Sizga maza ekan, o'ynab-o'ynab qaychi charxlarkansiz.

– Ha, – debdi charxchi, – bu hunarning tagi oltin. Haqiqiy charxchining cho'ntagida doim puli bo'ladi. Aytgancha, bu g'ozni qayerdan sotib oldingiz?

– Men uni sotib olganim yo'q, cho'chqamga almashtirdim.

– Cho'chqani-chi?

– Cho'chqani bitta sigir berib olganman!

– Sigirni-chi?

– Sigirni bitta otga almashtirganman!

– Otni-chi?

– Otni boshimday keladigan oltin yombi evaziga olganman!

– Tillani-chi?

– U mening yetti yillik xizmat haqim edi.

– Bu deyman, rosa omadli ekansiz-da, – debdi charxchi. – Ammo charxchi bo'lsangiz, hamyoningiz doim jangir-jungur pulga to'ladi, o'ringizdan tursangiz bo'ldi, pulning ovozi eshitaverasiz.

– Buning imkoni bormikin? – so'rabdi Hans.

– Bo'lmasam-chi, menga o'xshagan charxchi bo'lsangiz, bas, buning uchun bittagina qayroqtosh lozim, qolgan narsalarni topish muammo emas. Hozir menda bitta qayroqtosh bor, ammo biroz uringanroq. Buning evaziga siz menga bor-yo'g'i qo'ltig'ingizdagi g'ozingizni bersangiz, bo'ldi. Xo'sh, rozimisiz?

– Shuni ham so'rab o'tirasizmi, – debdi Hans. – Axir men u holda dunyodagi eng baxtli odamga aylanaman-ku, boshqa o'ylaydigan tashvish qolmaydi menda. – Shunday deb u g'ozini charxchiga uzatibdi, charxchi esa yerda yotgan dalaning oddiy bir og'ir toshini unga olib beribdi va qo'shib qo'yibdi:

– Mana, sizga yana bitta qattiq tosh, uning ustida har narsani urib tekislasa, eski mixlarni esa to'g'irlasa bo'ladi.

Hans toshlarni yelkasiga otib, mamnun holda yo'lida davom etibdi. Uning ko'zlari shodlikdan charaqlab, shunday deb hayqirarmish: «Men juda omadli yigitman-da! Nima istasam, o'sha zahoti amalga oshadi, omad menga doim yor!»

Bu orada kech kirib, qorong'i ham tushibdi. Hans tong sahardan shu paytgacha tik oyoqda yurganidan charchay boshlabdi. Buning ustiga qorni ham juda ochqabdi. Biroq u sigir savdosi-dan quvonib ketib, bor-yo'q ovqatini yeb qo'ygan ekan-da. Bu ham yetmagandek, yelkasidagi tosh-lar xiylagina og'ir ekan. Ular Hansning yelka-sini ezib, yag'ir qilib yuboribdi. Uning xayolini «qaniydi, shu toshlarni ko'tarib yurmasaydim», degan fikr band qila boshlabdi. U shilliqqurt kabi obdan sudralib, bir quduq yoniga borib, bi-roz dam olmoqchi bo'libdi. O'tirayotganda tosh-larni tushirib yubormaslik uchun Hans ularni quduqning bir chetiga qo'yibdi. Suv ichmoqchi bo'lib, endigina engashgan ham ekanki, toshlar quduqqa «shalop» etib tushib ketibdi. Ularning suv tagiga cho'kib ketayotganini ko'rgan Hans sakrab o'rnidan turib:

– Oh, qanday yaxshi bo'ldi-ya! – deb qich-qiribdi, hatto suyunganidan ko'zlariga yosh ham kelibdi. U umri davomida qilgan yaxshiliklari, bu safar ham uning o'ziga omad bo'lib qaytgani uchun shukronalar aytibdi. Axir bu og'ir tosh-larni yana ko'tarib ketishning o'zi bo'ladimi? «Butun yer yuzida va shu bobo quyosh ostida menday baxtli odam yo'q», dermish u quvonib. Tashvishlar-u ortiqcha yuklardan xalos bo'lgan Hans ko'ngli yorishib o'z yo'lida davom etibdi va uyiga – o'z onasining oldiga yelib-yugurib yetib olibdi.

Qurbaqa shahzoda yoʻxud zanjirband Haynrix

Orzular ro'yobi uchun bir zumning o'zi kifoya qiladigan zamonlarning birida bir qirol yashagan ekan. Uning qizlari ko'p, ularning bari bir-biridan go'zal ekan. Ayniqsa, kenjatoy qiz shu qadar dilbar ekanki, go'yo u yurgan yo'llar quyosh nuri tushgan kabi nurga to'lar ekan.

Qirol qasri yaqinida katta o'rmon bo'lib, u yerdagi baland jo'ka daraxtining ostida ajoyib bir buloq bor ekan. Agar ob-havo juda qizib ketsa, kenjatoy malika mana shu muzdek suvli, shifobaxsh buloq bo'yiga kelib o'ynar ekan. Bu yerda o'tiraverib zerikkan malika, tilla soqqasini osmonga otar, qaytib tushgan joyidan topib olib, yana qaytarib osmonga irg'itar ekan. Bu uning eng sevimli mashg'uloti ekan.

Shunday kunlarning birida malika osmonga otgan tilla soqqa qaytib uning nozik qo'lchasiga emas, balki buloq ichiga tushib ketibdi. Biroq buloq shunchalik chuqur ekanki, hatto uning tubi ko'rinmas ekan.

Malika zorlanib yig'lay boshlabdi. Betinim yig'layverganidan uning o'pkasi to'lib, o'zini zinhor to'xtata olmabdi. Bir mahal allaqayerdan: «Boshingga nima g'am tushdi, malika? Buncha qattiq faryod chekmasang? Yuraklarni ezib yubor-ding-ku! Bu fig'oningdan toshlar ham erib ketadi!» degan ovoz eshilibdi. Malika esa atrofiga qarab, avvaliga hech narsani ko'rmabdi. Ovoz kelgan tomonga qaragan ekan, ne ko'z bilan ko'rsinki, kallasi katta, badbashara qiyofali bir qurbaqa suvdan chiqib, malika tomonga kelayotgan ekan.

– Ha, bu senmiding? – debdi Malika. – Men buloqqa tushib ketgan tilla soqqamga achinib yig'layapman. Sening nima ishing bor?

– Yig'ini bas qil! – debdi jiddiy ohangda u. – Bu muammoning yechimini topish mumkin. Agar o'yinchog'ingni olib chiqib bersam, evaziga menga nima berasan?

– Nima istasang – shuni, qimmatli Qurbaqa-jon! – debdi malika suyunib. – Kiyimlarim, ta-qinchoqlarim, qimmatbaho toshlarim, hatto eng bebaho boyligim – oltin tojimni ham sendan aya-mayman!

Qurbaqa bunga javoban:

– Sening kiyimlaring, dur-u gavharlaring, oltin tojingning menga keragi yo'q. Agar sen men bilan hamroh bo'lib, doim birga o'ynasang, oltin tovoqchangda ikkimiz ovqatlansak, kosachangdan men ham suv ichsam, ko'rpangga kirib uxlasam – mana shularning barchasiga roziman, deb va'da

bersang, men suv ostiga tushib, tilla soqqangni olib chiqib beraman.

– Menga soqqamni topib bersang bas, – debdi Malika. – Nimani xohlasang, hammasiga roziman.

«Bu tentak qurbaqa bekorchi gaplarni aytib, meni rosa laqillatyapti, o‘ylabdi malika. Axir bu maxluq qanday qilib odamzodga hamroh bo‘lsin? U o‘ziga o‘xshaganlar bilan suv yuzida to‘planib olib, vaqillashdan boshqa hech narsani bilmaydi...»

Qizning va‘dasini olgan qurbaqa suvga sho‘ng‘ib, ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi va bir zumda suvni «shalop»latib, og‘zida soqqa bilan qaytib chiqibdi. O‘zining chiroyli ovunchog‘ini ko‘rib, benihoya suyunib ketgan malika, uni olib g‘izillaganicha uyiga jo‘nabdi.

– To‘xta, to‘xta, – qichqiribdi qurbaqa, – meni ham olib ket. Men senga o‘xshab yugura olmayman-ku!

Shunday deya u bor kuchi bilan qanchalik vaqillab qichqirmasin, baribir malika hech narsani eshitmabdi, u o‘z koshonasiga shoshar, bechora Qurbaqani esa allaqachon xayolidan chiqarib yuborgan ekan. Chunki u mitti xaloskorini, hoynahoy, yana qaytib buloqqa tushib ketgan bo‘lsa kerak deb o‘ylagan ekan-da. Ertasi kuni malika qirol va saroy amaldorlari bilan dasturxon atrofida o‘tirib, oltin tovoqchasida ovqatlanayotgan ekan, shu payt nimadir «shalop-



shulup», «shalop-shulup» qilib, marmar zinadan oʻrmaalab yuqorigacha koʻtarilib, eshikni taqilatibdi va:

– Hoy kenjatoy malika! Eshigingni och, men keldim! – deb malikani chaqiribdi.

Malika kim keldi ekan, deb yugurib borib, eshikni ochib qarasa, ne koʻz bilan koʻrsinki, u yerda kechagi qurbaqa turgan ekan. Malika jahl bilan eshikni yopibdi-da, borib yana oʻz joyiga oʻtiribdi. U juda qoʻrqib ketibdi.

Qirol qarasaki, qizining avzoyi buzuq. Hatto yuragi dukurlayotgani eshitilayotgan emish.

– Qizalogʻim, nega bunchalik qoʻrqib ketding? Eshik tagida birorta dev turibdimi deyman? Seni olib qochib ketmoqchi boʻldi, shekilli?– soʻrabdi qirol xavotirlanib.

– Yoʻq, yoʻq, dev emas! – titrab-qaqshab tushuntiribdi malika. – Majagʻi chiqqan, xunuk bir qurbaqa.

– Qurbaqa? Uni senda qanaqa ishi bor ekan? – soʻrabdi qirol ajablanib.

– Suyukli dadajonim, kecha men oʻrmondagi buloq boʻyida oʻynab oʻtirib, qoʻlimdagi tilla soqqamni suvga tushirib yuborgan edim. Boʻlgan voqeadan xafa boʻlib, dod solib yigʻlaganimni eshitgan qurbaqa suvdan soqqamni olib chiqib berdi. Buning evaziga men u bilan doʻst tutinishga soʻz bergan edim. Bu gʻalati qurbaqani bu yerga kelib, meni topishini sira oʻylamagan edim-da! Mana, endi u ichkariga kirmoqchi!

Shu payt eshik yana taqillabdi va qurbaqa-ning ovozi eshutilibdi:

*Hoy, kenjatoy malika,
Eshigingni och menga!
Yodingdami, sen kecha,
Salqin buloq bo'yida,
Aytgan so'zlaring menga?
Hoy, kenjatoy malika,
Eshigingni och menga!*

Buni eshitgan qirol:

– Aytilgan so'z – otilgan o'q, qizalog'im. Nima deb so'z bergan bo'lsang, o'z va'dangning ustidan chiqishing kerak! Tez borgin-da, unga eshikni och! – debdi.

Malika eshikni ochishi bilan qurbaqa bir sakrab ichkariga kiribdi-da, qizning ortidan sudralib, u o'tirgan stul yoniga yetib kelib:

– Meni ham ko'tarib, yoningga o'tqazib qo'y! – debdi. Qirol qiziga qurbaqaning istagini tezda bajarish lozimligini uqtiribdi.

Qurbaqa malikaning yonida o'tirish bilan ham qanoatlanmay, stolga yozilgan dasturxon ustiga chiqmoqchiligini aytibdi. U endi dasturxonda turib olib, malikaga shunday debdi:

– Oltin tarelkachangni menga yaqinroq sur, ikkovimiz bir idishdan ovqatlanishimiz kerak!

Malika qurbaqaning xohishini noiloj bajarsa-da, o'zini tutishidan uning ichida qattiq norozilik

borligini payqash qiyin emasdi. Qurbaqa maza qilib ovqatlanar, malika esa ovqat yeyish u yoqda tursin, hatto tomog'idan bir qultum suv ham o'tmas edi. Nihoyat, qurbaqa:

– Qornim to'ydi, ammo biroz charchaganman. Endi meni o'z xonangga ko'tarib olib borasan, shohi ko'rpalariningni solasan, ikkovimiz birga uxlaymiz, – debdi.

Kenjatoy malika dod solib yig'lashdan o'zini bazo'r to'xtatibdi, chunki u bu xunuk mavjudot oldida yig'lashdan ham cho'chibdi. Axir bu qurbaqa qanday qilib uning chiroyli, top-toza shohi ko'rpasida uxlasin?! Malikaning noroziligidan jahli chiqqan qirol qiziga tushuntiribdi:

– Boshingga ish tushganida kim senga yordam berdi? Endi sen qurbaqadan jirkanishing noo'rin!

Malika otasining ra'yiga qarab, Qurbaqani barmoqchalarining uchi bilan og'rinibgina ko'tarib, xonasiga olib kirib, bir burchakka tashlabdi. Bir payt qurbaqa qizning yotog'iga sudralib kelib:

– Juda charchaganman, men ham senga o'xshab maza qilib uxlagim kelyapti. Meni ko'tarib yoningga ol! Bo'lmasa, otangga aytaman! – deya po'pisa qilibdi. Bu gaplardan malikaning qattiq jahli chiqibdi:

– Tinchisanimi, yo'qmi? Sen badbashara, yaramasdan qanday qutulsam bo'ladi? – deb g'azab bilan qurbaqani tashqariga olib chiqibdi-da, bor kuchi bilan uni devor tomonga uloqtiribdi.

Shu payt kutilmagan mo'jiza yuz berib, osmonga uloqtirilgan mavjudot qurbaqa emas, balki kelishgan, yoqimtoygina bir yigitga aylanib yerga tushibdi! Yigit malikaga juda yoqib qolibdi. Aslida u shahzoda ekan. Shunday qilib, qirolning amri bilan shahzoda va malikaning nikoh to'yi ham bo'lib o'tibdi.

Shahzoda malikaga boshidan o'tgan mudhish voqealarning barini so'zlab beribdi. Uni bir yal-mog'iz kampir sehrlab, qurbaqaga aylantirib qo'ygan ekan. Shu paytga qadar malikadan boshqa hech kim uni bu afsundan qutqara olmaganligini ham aytibdi.

Ular bugun shu yerda tunab, ertasi kuni tong mahalida birgalashib shahzodaning sal-tanatiga borishga qaror qilishibdi. Tonggi qu-yoshning yoqimli nurlari atrofni uyg'otgan kez allaqachon kelin-kuyovlar uchun sakkizta oq ot qo'shilgan chiroyli foytun tayyorlab qo'yilgan edi. Har bir otning boshida oq tuyaqush patlari bog'langan, ular oltin zanjir bilan jilovlangan ekan. Foytun orqasida esa shahzodaning sodiq xizmatkori Haynrux turar edi. Haynrux ko'ksini uch qavat zanjir bilan o'rab olgan bo'lib, bu bilan u go'yoki xo'jayinini har qanday kulfat-u ofat-dan saqlab qolishga qodir ekan. Sodiq xizmatkor shahzoda va malikani foytunga o'tqazibdi-da, odatiga ko'ra arava ortidagi o'z joyiga o'tiribdi. Xo'jayinining butunlay ozodlikka chiqqanidan

behad suyungan Haynrix o'zini qo'yarga joy to-polmas, quvonchlari cheksiz ekan.

Ular o'z manzillari sari ravona bo'libdilar. Yo'lning bir qismi bosib o'tilgach, aravaning orqa tomonida nimaningdir singan tovushi eshi-tilganday bo'libdi, bundan ajablangan shahzoda xizmatkorlariga shunday debdi:

– *Haynrix, arava sindimi?*

– *Yo'q, xo'jayin, bu arava emas,*

Parchalandi yuragimning zanjiri.

Chuqur iztirobda qolgan edi u,

Siz buloqda, ming bir azobda,

Baqa bo'lib yotgan u tobda.

Bu so'zlar yo'l bo'ylab yangrashdan to'xta-mabdi. Shahzodaga esa har gal bu ovoz ara-vaning singan tovushi kabi eshitilardi. Biroq bu siniq tovushlar o'z xo'jayiniga sodiq Hayn-rixning yuragidan otilib chiqayotgan ohlarning sasi ekan. Endilikda uning yuragi temir zanjirlar kabi alamlarning qurshovidan ozod ekan. Chunki uning xo'jayini hamma kulfatlardan eson-omon qutulib, yana hur va ozod yashashni boshlagan ekan.

Shunday qilib shahzoda malika bilan baxtli-saodatli hayot kechirib, murod-maqsadiga yet-gan ekan.

Janob Korbes

O'tgan zamonlarning birida xo'rozcha va tovuqcha bo'lgan ekan. Kunlardan bir kun ular birgalikda sayohatga chiqishga qaror qilishibdi. Xo'rozcha to'rt qizil g'ildirakli arava yasab, unga to'rtta sichqonchani ham qo'shib qo'yibdi. Xo'roz bilan tovuq aravaga chiqib, yo'lga tushibdilar. Ko'p yo'l bosmay, ularga bir mushuk yo'liqibdi.

– Yo'l bo'lsin? – so'rabdi u. Xo'rozcha javob beribdi:

– Bormoqchimiz biz o'shal tomon,
Janob Korbes boshliq go'zal xonadon.

– Men ham birga boray, – debdi mushuk.
Xo'rozcha ququlab:

– Bajonidil, orqa tomonga chiqib ol, agar oldiga o'tirsang, o'mbaloq oshib ketasan, – debdi va mana bu qo'shiqni aytib ketaveribdi.

*«Aravamga chiqdingmi shu on,
E'tibor ber, beparvo bo'lma!
Qip-qizil g'ildirakchalarim
Bulg'anmasin, bo'lmasin yomon.
Aylanayin, g'ildirakchalar,*

*Aylanaver, shoshib, g'irillab.
O'rgilayin, sichqonchalarim,
Yo'rg'alarim, choping chitillab,
Ketmoqdamiz biz o'shal tomon,
Janob Korbes boshliq xonadon».*

Yo'l-yo'lakay sayyohlar safiga tegirmontosh, tuxum, o'rdak, ulardan so'ng sanchqi va nihoyat igna ham kelib qo'shilishibdi. Barchalari to'rtta sichqon tortayotgan aravaga o'tirib olib, bir-birlariga yo'ldosh-u qo'ldosh bo'lib, yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, nihoyat manzilga yetibdilar.

Janob Korbes yashaydigan manzilga yetib kelingach, ichkariga kirib qarashsa, u uyda yo'q ekan. Sichqonlar darhol aravani hovliga olib kirib qo'yibdilar. Xo'rozcha va tovuqcha to'singa chiqib o'tirib olishibdi. Mushuk o'choq ustiga joylashibdi. O'rdak lapanglab suv to'la tog'oraga tushibdi, tuxum darhol sochiqqa o'ranib olibdi. Sanchqi kursi ustidagi ko'rpachaga sanchilibdi, igna karavotdagi yostiqni o'ziga manzilgoh qilibdi, tegirmontosh eshik ustiga chiqib olibdi.

Bir payt Janob Korbes uyiga qaytib, o'choqqa yaqinlashib, o't yoqmoqchi bo'lgan ekan, to'satdan mushuk uning basharasiga kul sochib yuboribdi. Oshxonaga chopib kirib yuzini yuvmoqchi bo'lgan ekan o'rdak Janob Korbes tomonga suv sepa boshlabdi. Sochiqni olib yuz-

ko'zini artmoqchi bo'lgan ekan, tuxum sinib, ko'zlariga yopishib qolibdi.

Biroz nafasini rostlab olish maqsadida kursiga o'tirgan ekan, u yerdagi sanchqi orqasiga sanchilibdi. Bu holdan tepa sochi tikka bo'lgan Janob Korbes o'zini karavotga otgan ekan, yostiqqa tegar-tegmas boshiga igna kirib ketibdi. U dod-voylagancha sakrab o'rnidan turib, alamidanda ko'chaga otilib chiqib ketay degan ham ekanki, eshikdan chiqayotganida, tegirmontosh uning boshiga tushib ketibdi. Janob Korbes shu zahotiyoc til tortmay o'libdi.

Tavba, bu Janob Korbes yomon odam bo'lgan, shekilli. Shuncha ko'ngilsizlik birdaniga bekorga yuz bermaydi-ku!



Folbin hakim

O'tgan zamonlarning birida Krebs¹ ismli kambag'al bir dehqon o'tgan ekan. Kunlardan bir kun u ikki ho'kiz qo'shilgan aravasiga o'tin ortib, shahar-ga boribdi va ularni bir hakimga sotibdi. Pulni olayotib, dehqonning ko'zi dasturxon atrofida o'tirgan hakimga tushib qolibdi. Hakim beni-hoya nazokat ila yeb-ichib o'tirganini ko'rgan dehqon hayratga tushibdi. «Qani endi men ham shunday hakim bo'lsaydim!» – degan o'y uning ko'nglidan o'tibdi. Biroz xayol surib qolgan dehqon mezbonga yuzlanib, nihoyat:

– Men ham hakim bo'la olamanmi? – deb so'rashga jazm qilibdi.

– Ha, albatta, – debdi hakim, – bu juda oson.

– Nima qilishim kerak? – so'rabdi dehqon.

– Eng avvalo, muqovasiga xo'rozning rasmi tushirilgan bir alifbo sotib ol. Keyingi qiladigan ishing – arava va ho'kizlaringni pullab, o'zing-ga mos ust-bosh va hakimlikka kerakli asbob-anjomlar sotib olish. So'ng biror taxtaga: «Men

¹ Krebs – olmon tilida qisqichbaqa ma'nosini bildi-radi.

folbin hakimman» deb yozgin-da, darvozang tepasiga qoqib qo'y. Dehqon unga aytilganlarning barini bajaribdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, bir badavlat kishining pulini o'g'irlashibdi. Shunda unga folbin hakimning oldiga borishni maslahat berishibdi. Janob fursatni boy bermay, foytunini qo'shtirib, qishloqqa borib, hakimga uchrabdi.

– Folbin hakim siz bo'lsangiz kerak-a? – deb so'rabdi boy.

– Ha, adashmadingiz, men Folbin hakimman, – javob qilibdi u.

– Menga sizning yordamingiz zarur, o'g'irlangan pullarimni tezda topishim shart.

– Mayli, roziman, biroq xotinim Grete ham men bilan birga borishi kerak.

Badavlat kishi er-xotinni foytunga o'tqazib, o'z uyiga olib ketibdi. Boyning uyida bezatilgan dasturxon ularga muntazir turgan ekan. Hakim dasturxonga taklif etilgach, u xotini Greteni ham chaqirib kelishlarini so'rabdi. Ikkovlon stol atrofiga o'tirib olishibdi. Birinchi xizmatkor taniq taom suzilgan katta laganni ko'tarib kelganida, dehqon xotinini turtib, debdi:

– Grete, mana bu – birinchisi. – Bu gapi bilan ushbu xizmatkor keltirgan ovqat taomlarning birinchisi ekanligini ta'kidlamoqchi bo'libdi. Xizmatkor esa «dehqon, bu birinchi o'g'ri, deb aytdi» tarzida tushunibdi. U rostdan ham o'g'rilarning bittasi o'zi bo'lgani sababli qo'rqib ketib, tashqaridagi sheriklariga debdi:

– Hakim barchasidan xabardor, endi ishimiz chatoq. U meni o‘g‘rilarning birinchisi ekanligimni aytdi.

Ikkinchi xizmatkorning esa ichkariga kirishga yuragi dov bermabdi, ammo ikkinchi ovqatni olib kirish uning vazifasi ekan. U qo‘lidagi lagani bilan ko‘ringan zahotiyoq dehqon xotinini turtib:

– Grete, mana bunisi – ikkinchisi, – debdi. Xizmatkorning rangi bo‘zarib, bir amallab tashqariga chiqibdi. Uchinchi xizmatkor bilan ham xuddi shu hol takrorlanibdi. U kirishi bilan dehqon xotiniga yana:

– Grete, bu – uchinchisi, – debdi. So‘ngra to‘rtinchi xizmatkor usti yopiq lagan olib kirgan ekan, boy karomatli hakimga yuzlanib, o‘z folbinlik san‘atini namoyish etib, laganda nima borligini aytib berishni so‘rabdi. Laganda esa qisqichbaqadan tayyorlangan taom olib kirilgan ekan. Dehqon usti yopiq laganga qarab, nima deyishini bilmay, boshi qotib, uf tortibdi va: «Eh, men bechora Krebs!» deb yuboribdi. Ammo dehqonning ismi «qisqichbaqa» ma’nosini anglatganidan, boyning qulog‘iga: «Eh, men Qisqichbaqa!» deb eshitilibdi, shekilli, hayratlanganidan: «Topdi, ha topdi, endi u pulni ham kim olganini biladi!» deb yuboribdi. Xizmatkorning esa rangi o‘chib, hakimni imlab, tashqariga bir zumga chiqib kelishni iltimos qilibdi. Dehqon tashqariga chiqqan ekan, to‘rtta xizmatkor ham pulni o‘g‘irlaganliklariga iqror bo‘lishibdi. Agar hakim ularning aybdor ekanliklarini oshkor etib qo‘ymasa, jon-jon deb bu pul-

larning barini egasiga qaytarib berishlarini va uning o'ziga ham bu yordami uchun anchagina pul berib siylash niyatida ekanliklarini aytishibdi. Aks holda o'g'rilar dorga osilishi turgan gap ekan-da! Ular dehqonga, hatto pul yashirib qo'yilgan joyni ham ko'rsatib qo'yishibdi. Hakimga bu taklif ma'qul tushibdi. U yana ichkariga qaytib kimgach, stol atrofiga o'tirib, uy begiga yuzlanib debdi:

— Aziz birodarim, endi men kitobimga qarab, bir fol ochay-chi, pul qayerda ekan, — debdi. Beshinchi xizmatkor o'choqning ichiga kirib olib hakim yana biror narsani bilish-bilmasligini eshitib olmoqchi bo'libdi. Hakim esa o'tirib olib, alifbosini varaqlay ketibdi. U kitobni u yoqdan bu yoqqa varaqlab, dakang xo'roz rasmini izlay boshlabdi. Xo'roz rasmi topilavermagach, hakim nihoyat muqovadagi dakang xo'rozni ko'rib: «Shu yerdasan-ku, qani bu yoqqa chiq!» deb yuboribdi hayqirgancha. O'choq ichida gap poylayotgan xizmatkor esa «hakim meni aytdi» deb o'ylabdi-yu, qo'rqib ketganidan o'rnidan sakrab turib: «Bu odam hamma narsani biladi!», deb baqirib yuboribdi. Shundan so'ng Folbin hakim boyga pul qayerda turganini ko'rsatibdi, ammo kim o'g'irlagani haqida hech narsa demabdi.

Shunday qilib, oqilona qarori evaziga har ikkala tomondan ham mo'maygina pulni qo'lga kiritgan dehqon endi to'kin hayot kechira boshlabdi va Folbin hakim nomi bilan mashhur bo'lib ketibdi.

Bo'tqali qozon

Qadim o'tgan zamonda bir tegirmonchi bo'lgan ekan. U o'zining mehnatsevar xotini bilan birgalikda kecha-yu kunduz tinim bilmay ishlar ekan. Chunki odamlar tegirmonga uzoq-uzoqlardan donini un qildirtirish uchun kelisharkan. Er-xotin esa hech narsaga zoriqmas, tegirmonning orqasidan yaxshigina daromad qilisharkan. Bu orada ular qiz farzand ko'ribdilar va bundan boshlari ko'kka yetgudek xursand bo'lishibdi.

Tegirmonchining qizi kun sayin ulg'ayib, husniga husn qo'shilib boraveribdi. U yozning is-siq kunlarida ariq bo'yida oyoqlarini suvga tiqib o'tirsa, baliqlar ham go'yo bu holatdan xursand-dek sakrab-sakrab uning atrofida o'ynasharkan. Ular qizni yaxshi ko'rishar ekan.

Oradan yillar o'tib, tegirmonchining qizi husnda tengsiz dilbarga aylanibdi. Ota-onaning boshiga esa kuyov tashvishi tushibdi. Biroq to'satdan mamalakatda qahatchilik boshlanibdi. Yoz bo'yi yomg'ir taqchil bo'lib, ekinlar qurib qolibdi. O'tloqlardagi maysalar kuyib ketibdi, odamlar non ham, hayvonlarga yemish ham to-

polmay qolishibdi. Don bo'lmagach, tegirmon ham to'xtabdi. Tegirmonchining omboridagi zahiraga g'amlab qo'yilganlarning ham tagi ko'rinib qolibdi. Shunday kunlarning birida xotini barcha qoplarni qoqib, qutilarni ag'dar-to'ntar qilib, oxirgi un va tuzni solib, bo'tqa pishiribdi.

– Bu oxirgi yeguligimiz, – debdi u. – Uni yeb tugatgach, keyin och qolishimizga to'g'ri kela-di. Bo'tqa hali yaxshi pishmagan ekan. Shunday bo'lsa-da, tegirmonchi oshxonaga kirib, uning ta'mini tatib ko'rmoqchi bo'libdi. Xotini bunga ruxsat bermabdi. Eri zo'rlik bilan pechkaga yaqinlashibdi. Biroq xotini chaqqonlik ila olovda turgan qaynoq qozonni dast ko'tarib, qochib qolibdi. Tegirmonchi esa qo'lida cho'mich ushlab olganicha uning orqasidan yuguribdi. Bir-birini quvlab chopayotgan er-xotin hovlida oyoqyalang turgan qizchasining yonidan o'tib ketishibdi. Qiz esa oyog'iga kalishini apil-tapil kiyib olganicha ularning orqasidan yuguribdi. Biri qochib, boshqasi quvlab bir o'rmonga duch kelib qolishgan paytda qiz o'zining bir poy kalishi tushib qolgani-ni payqabdi. Uni izlab topish maqsadida ortiga qaytgach, ota-onasining qayerga g'oyib bo'lib qolishganini ko'rmay qolibdi.

Qiz bechora yerga o'tirib olganicha yum-yum yig'labdi. Bir payt uning yonida qari bir kampir paydo bo'lib, shunday debdi:

– Xo'sh, ayt-chi, nima bo'ldi senga? Nega yig'layapsan, bolam?

— Eh, — debdi qiz, — oyim uyimizda qolgan oxirgi undan bo'tqa pishirayotgan edi, biroq hali pishib ulgurmay otam uni yeb ko'rmoqchi bo'ldilar. Oyim esa bunga qarshilik bildirdilar va qozonni ko'targancha qochib ketdilar. Otam oyimning ortidan qo'llarida cho'mich bilan yugurdilar, men ham ularga qo'shilib orqalaridan chopdim. Hatto kalishlarimni kiyib olishga ham ulgurmay, ularni qo'limda ko'targancha yugurdim. Bilmasdan bittasini tushirib qo'yibman. Uni izlayman deb ota-onamdan orqada qolib ketganimni bilmay qolibman. Endi esa ularni yo'qotib qo'ydim. Nima qilsam ekan men sho'rlik?!

— Yig'lama, qizalog'im, yig'lash befoyda! Kalishingni boyqush topib olibdi va bolalariga boshpana qilibdi. Mana, senga yangi kalish! Shunday deya kampir xaltasiga qo'lini tiqib, yap-yangi bir poy kalishni chiqarib beribdi. Qiz uni eskisi bilan birga kiyib ko'rgach, kulib yuboribdi:

— Axir men bunday ko'rinishda qanday qilib odamlarning ko'ziga ko'rinaman? Chap oyog'imda yangi kalish, o'ngida esa eski. Buni ko'rib kulishmaydimi?

— Kiyishni xohlamasang, mana, ikkinchi poyini ham ola qol, — debdi kampir va ikkinchi kalishni ham qopidan olib beribdi. Ularni kiyib ko'rgan ekan, qizga loyiq kelibdi va yarashibdi ham. Shunda kampir:

– Shu yo‘l bo‘ylab ketaversang, baland bir qarag‘ayga duch kelasan, u ham ortingda qoladi. Ko‘p o‘tmay qarshingdan baland darvoza chiqadi. U shoh saroyiga olib kiradi. Dadil kirgin-da, boshpana uchun joy so‘ra. Seni yaxshi kutib olishadi, shoyi va paxtadan tikilgan turli-tuman kiyimlar ko‘rsatishadi. Sen ulardan birini tanlashing kerak. Shunda eng chiroyli shohi ko‘ylakni ol. Agar sendan: «Nega aynan shu ko‘ylakni olding?», deb so‘rashsa, sen shunday javob ber: Men shohi liboslarda katta bo‘lganman».

Kampirga barcha nasihat va maslahatlari uchun rahmat aytib, qiz yana o‘z yo‘lida davom etibdi. Qarasaki, kampir aytgan hamma gap to‘g‘ri bo‘lib chiqibdi.

Tez orada tegirmonchining qizi saroyga yetib kelibdi. Uni iliq kutib olishibdi, mehmon ham qilishibdi. Keyin unga bir-biridan harir bir qancha liboslarni ko‘rsatishibdi. Shunda qiz kampirning maslahatiga amal qilib, eng nafis shohi ko‘ylakni tanlabdi. Shoh undan:

– Nega shohi libosni tanlading, qizim? – deb so‘ragan ekan, qiz shunday javob beribdi:

– Men shohi liboslar kiyib katta bo‘lganman.

Podshoning bir o‘g‘li bo‘lib, yigit yoshiga yetib qolgan ekan. Shoh esa uni uylantirib qo‘yish niyatida yurgan ekan, biroq u nihoyatda o‘jar, uylanishni aslo istamas ekan. Boisi, shu vaqtga qadar birorta ham qiz uning ko‘nglini


zabt etolmagan ekan-da! Biroq shahzoda shohi liboslarga burkanganida yanada dilbar qiyofaga kirgan tegirmonchining qizini ko'rib, unga oshig'-u beqaror bo'lib qolibdi. Otasining huzuriga borib, iqror bo'libdi:

– Agar meni uylantirish niyatida bo'lsangiz, shu qizni tanladim va unga uylanishga qaror qildim. Boshqa hech kim kerak emas menga!

– Quvonchlari cheksiz shoh xursandligidan o'g'liga to'y boshlab yuboribdi. Xaloyiqni to'y ziyofatiga chorlabdi. To'y o'tgach, shahzoda qaylig'iga butun saroyini ko'rsatibdi. Saroy bo'y-lab sayr nihoyasiga yetgach, qiz deraza oldiga kelib, saroy atrofidagi dasht-u dalalarni tomosha qilish ilinjida tashqariga qarabdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, u yerda onasiga ko'zi tushib qolibdi. Bo'tqa pishirilgan qozonni boshiga qo'yib olib, bir qo'li bilan uni mahkam ushlagancha chopayotgan onasining sochlari ham to'zib ketgan ekan. Otasi esa uning orqasidan qo'lida katta cho'mich bilan yugurib borayotgan emish, cho'michini qilichday o'ynatib chopayotgan emish. Buni ko'rgan qiz to'satdan kulib yubor-ganini o'zi ham bilmay qolibdi. Shahzoda uning yoniga kelib so'rabdi:

– Nega kulyapsan, suyukligim? – Qiz esa unga haqiqatni aytishga uyalib, shunday debdi:

– Shu kichkina saroyda to'y qilamizmi, deb kulyapman-da. Axir shuncha ko'p mehmonni qayerga sig'diramiz?



– Nima, sening saroying biznikidan katta-roqmi? – so‘rabdi shahzoda hayron bo‘lib.

– Har holda bundan ancha katta! – javob qilibdi qiz, hatto o‘ylab ham o‘tirmasdan. Shahzoda esa shu zahotiyoq:

– Unda to‘yni o‘sha yerda o‘tkazamiz! Hammamiz birgalikda senikiga boramiz! – deb yuboribdi. So‘ng u maslahat qilib olish uchun otasining huzuriga ketibdi. Qiz esa zinadan tushib, hovliga chiqibdi va qochib ketmoqchi bo‘libdi. Biroq barcha darvozalar qattiq qo‘riqlanar ekan. Shunda u kimsasiz bir burchakka borib, yum-yum yig‘labdi. Uning nolasidan osmon-u falak titrab ketibdi.

Bir payt qizning yonida o‘sha kampir yana paydo bo‘lib qolibdi.

– Nega yig‘layapsan? – deb so‘rabdi kampir.

– Qanday qilib yig‘lamay? – debdi qiz. – Deraza yonida turib, atrofni tomosha qilayotgandim. Shunda oyim bo‘tqa pishirilgan qozon bilan yugurib o‘tib qoldi. Orqasidan otam quvlayapti, qo‘lidagi cho‘michini qilichday o‘ynatib boryapti. Ularni ko‘rib, kulib yubordim. Shahzoda nega kulayotganimni so‘raganida esa bor gapni aytishdan uyalib, miyamga durustroq fikr kelmaganidan men uning kichik saroyi ustidan kulayotganimni, to‘yga kelgan mehmonlar u yerga sig‘masligini va undan ham katta, hashamatliroq qasr bizda borligini aytdim. Shahzoda esa to‘yni

men aytgan qasrda qilishni mo'ljallamoqda. Endi nima qilaman? Axir, bizning hech qanaqa saroyimiz yo'q-ku. Yeyishga ovqat yo'qligidan hammaga masxara bo'lib yuribmiz-ku aslida.

– Aslo tashvish chekma, – debdi kampir. – Hech xavotir bo'lmasdan shohning izvoshiga minib ketaver. Saroy darvozasidan chiqishlaring bilan oldingizdan bir oq it chopib chiqadi. U faqat senga ko'rinadi. Izvosh va mehmonlarni shu it chopgan tomonga boshlab boraver, – debdi kampir va bir zumda ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Kelin-kuyov uchun yasatilgan izvoshga chiqib, kuyovning yoniga o'tirayotganida bechora kelinning tizzalari qaltirabdi. Ular saroy darvozasidan endigina chiqishgan ham ekanki, qizning ko'ziga izvoshning oldida chopib borayotgan oq it ko'rinibdi. U it ko'rsatgan yo'l bilan mehmonlarni boshlab ketaveribdi. Bir muddat yurilgach, shahzoda qizdan so'rabdi:

– Yaqinlashib qoldikmi?

– Ha, yaqin qoldi! – javob beribdi qiz o'zi aniq bilmasa ham. Oradan biroz fursat o'tgach, kuyov betoqat bo'lib yana so'rabdi:

– Qayerda o'zi sening saroying?

– Mana shu yerda! – javob qilibdi qiz, chunki it to'xtab qolgan ekan. Qarashsa, odamlarning ko'z o'ngida osmono'par minorali baland qasr paydo bo'libdi. Uning derazalari yaraqlar, qasr mo'rilaridan esa o'ynoqlab tutun chiqayotgan emish. «Bu mening qasrim!» debdi quvonchi

ichiga sig'may ketgan kelin. Saroy darvozalari ochilib, nikoh to'yiga kelayotgan xaloyiq ichkari kiribdi. Qarangki, saroyda hamma narsa mehmonlarni kutish va to'y o'tkazish uchun tayyorlab qo'yilgan ekan: dasturxonlar yozilgan, xizmatkorlar u yoqdan bu yoqqa zir yugurib, noz-u ne'matlar tashiyotgan emish. To'yga kelganlar dasturxon atrofiga o'tirib, tortilgan xushta'm yeguliklar, xushbo'y ichimliklardan yeb-ichib o'tirishibdi. Bazm avjiga chiqqan payt qasr darvozasidan ichkariga boshida qozoncha ko'tarib olgan ayol otilib kiribdi va malikaga dod solgan ovozda debdi: «Yordam bering, malikam, erim urmoqchi meni!». Shu payt orqasidan eri ham yetib kelib, uzun cho'michi bilan xotinini endi boplab urmoqchi bo'lgan ekan, qayerga kelib qolganini anglagach, bu qaroridan qaytibdi.

Kelin esa o'z joyidan turib, ota-onasining oldiga borib:

– Oyijon, otajon, qo'yinglar bu janjalni! Undan ko'ra biz bilan birga o'tirib, bazm gashtini suringlar, – debdi va hayrat ichra boqib turgan mehmonlarga ham kulgili, ham achinarli bu hangomani so'zlab beribdi.

– Albatta, albatta, qani qudalar, kelinglar! – hayqiribdi shirakayf kekxa podshoh.

– Biz ham bo'tqangizdan tatib ko'raylik! Qani, kelinglar, o'tiringlar!

Shunda tegirmonchining xotini boshidan qozonini olibdi, tegirmonchi esa yog'och cho'-

michi bilan mehmonlarning taqsimchalariga oz-ozdan bo'tqa solib beribdi. Bo'tqa barchaga yetibdi. Mehmonlar uni maqtab-maqtab tanovul qilishibdi va shu bilan bo'tqa ham tugab qolibdi. Er-xotinning oldiga to'ygunlaricha turli-tuman ovqatlar, qovurdoqlar keltirilibdi. Ular yugura-yugura tolib ketganlaridan juda ochqab ketishgan ekan. Ushbu hashamatli saroyda maza qilib ovqatlanib olishibdi. Qiz esa bo'lib o'tgan voqealarga qaramasdan malikaligicha qolibdi hamda sevimli qaylig'i bilan turmush qurib, murod-maqсадlariga yetibdilar.



Yetti qarg'a

Bir odamning yettita o'g'li bo'lgan ekan. U bittagina qiz farzand ko'rishni juda-juda orzu qilar ekan. Shunday kunlarning birida uning orzusi ro'yobga chiqibdi. Xotini unga qizaloq tug'ib beribdi. Murodiga yetgan otaning shodligi cheksiz ekan. Biroq chaqaloq juda nimjon tug'ilibdi. Shuning uchun ham ota-onasi qizaloqqa ism qo'yish marosimini tezroq o'tkazish taraddudiga tushib qolishibdi. Ota o'g'illaridan birini suv keltirishga jo'natibdi. Qolgan oltita aka-uka ham unga ergashib bo'raverishibdi. Ularning bari suvni birinchi bo'lib olib kelishga shoshilishibdi. Biroq ehtiyotsizlik qilishganidan ko'za quduqqa tushib ketibdi. Bolalar nima qilishlarini bilmay gangib qolishibdi. Otalarining oldiga qanday qilib suvsiz borishsin axir? Suvga ketgan o'g'illarning hech biridan darak bo'lavermagach, otaning toqati ham tugabdi. Ular nega kelmayapti? Suvga ketdik deb qayerga gumdon bo'lishdi ekan? Yoki o'tloqda o'ynab yurishganmikin?

Axiri, toqati toq bo'lgan otaning jahli chiqib: «Senlar menga o'g'il bo'lguncha, koshkiydi, osmonda uchib yurgan qarg'alar bo'lsaydilaring!»

deya o'g'illarini qarg'abdi. Shu payt kutilmagan bir mo'jiza yuz beribdi. Ota qushlarning patil-lagan tovushini eshitib, osmonga qaragan ham ekanki, ne ko'z bilan ko'rsinki, osmonda chindan ham yettita qarg'a uchib yurgan emish! Qarg'a-lar borgan sari uzoq-uzoqlarga uchib, nihoyat ko'zdan g'oyib bo'lishibdi! Bu holatdan ota juda ham qo'rqib ketibdi. U o'ylamay-netmay turib o'g'illarini qarg'aganidan pushaymon bo'libdi. Chunki ota ham, ona ham o'z o'g'illarini jon qa-dar yaxshi ko'rishar ekan-da. Ular endi nima qi-lishmasin, baribir tildan chiqqan qarg'ish kuchi-ni qaytarib bo'lmasdi. Ota-ona kecha-yu kuduz yig'lab, chuqur g'am chekishibdi. Ular boshla-riga tushgan bu kulfatdan yorilib ketay deyish-sa ham yakka-yu yagona ovunchoqlari – yangi tug'ilgan qizaloq bilan yupanar ekanlar. Qizaloq kun sayin ulg'ayib, chiroyiga chiroy qo'shilib boraveribdi. Biroq ota-ona qizning yettita akasi borligini undan sir tutib kelishibdi.

Kunlardan bir kun qizaloq ko'chada o'ynab yurgan chog'ida, nogahon xotinlarning o'zaro pichirlashayotganlarini eshitib qolibdi. Ulardan biri: «Bu qizcha juda aqlli va chiroyli bo'ldi-da!» desa, ikkinchisi: «Yettita akasining boshiga kul-fat tushishiga shu qiz aybdor» debdi.

Bu gapni eshitgan qizcha shu zahotiyoq uyi-ga yugurib borib ota-onasidan:

– Hali mening yetti nafar akam bo'lganmi? Hozir ular qayerda? – deb so'rayverib, ota-onasi-


ni hol-joniga qo'ymabdi. Ilojsiz ota-ona esa chegarasiz so'rov-qistovlardan so'ng bo'lib o'tgan o'sha mudhish voqeani boshidan oxirigacha unga so'zlab berishga majbur bo'lishibdi.

Shu kundan e'tiboran qizcha huzur-halovatdan butkul ajralibdi. Nihoyat u akalarini izlab topishga ahd qilibdi va hech kimga aytmasdan safarga otlanibdi. Qizcha yo'lga kerakli buyumlar, oziq-ovqat va ota-onasi sovg'a qilgan uzukni ham o'zi bilan olib ketibdi. U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Oxirgi yo'lning ham so'ggiga yetib boribdi. Osmon sari otlangan qizaloq Quyoshga ro'baro' kelibdi. Biroq zarrin nurli oftobga yaqinlashishning imkoni yo'q ekan. Chunki uning isiq taftidan kuyib kulga aylanish hech gap emas ekan-da! Shuning uchun qizcha Oy sari yuzlanibdi. Biroq uning bag'ri nihoyatda sovuq bo'lib, buning ustiga uning jahli ham yomon ekan. Nihoyat u Yulduzlar huzuriga yetib boribdi. Ushbu porloq mo'jizalar juda go'zal ekan. Har bir Yulduz o'zining alohida kursichasida o'tirar ekan.

Hulkar yulduzi o'rnidan turib, qizchaga tovuq suyagini uzatibdi va:

– Bu tovuq suyagi bilan sen akalaring yashiringan billur tog' darvozasini ochasan, – debdi.

Qizcha unga minnatdorlik bildirib, suyakchani ro'molining uchiga tugib, aytilgan manzil sari ravona bo'libdi. U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Oxirgi billur tog' ro'parasiga kelib qolganini sezmay ham qolibdi. Haqiqatan



ham, ushbu tog'ning katta darvozasi bo'lib, u qulflangan ekan. Qizcha ro'moliga tugib olgan tovuq suyagi bilan darvozani ochmoqchi bo'lgan ekan, ne ko'z bilan ko'rsinki, tovuq suyagi o'z joyida yo'q emish. Endi nima qilish lozim? Shu payt qizcha o'z barmoqchasini darvoza qulfiga tiqqan ham ekanki, qulf sharaqlab ochilib ketibdi!

Qizcha dadillik ila tog' ichkarisiga kiribdi. U yerda bir mittivoy ko'rinibdi. U qiz tomonga yaqinlashib:

– Sen bu yerlarga nima izlab kelding, qizaloq? – deb so'rabdi mehribonlik bilan.

– Men qarg'aga aylanib qolgan yettita akamni qidirib keldim, – javob beribdi qizcha.

– Hozircha Janob Qarg'alar yo'q, lekin hademay kelib qolishadi. Men ularning xizmatkoriman, – debdi mittivoy.

Shundan so'ng u dasturxon yozib, yettita tovoqchada ovqat, yettita kosachada sharbat keltiribdi. Qizcha ataylab har bir tovoqchadan bir chimdimdan ovqat, har bir kosachadan bir qultumdan sharbat ichibdi va uzukchasini yettinchi kosachaning ichiga solib qo'yibdi. O'zi esa darrov bir burchakka berkinib olibdi. Shu payt birdan qushlarning patillagan tovushi eshitilibdi. Yetti nafar qarg'a kelib ovqatlanishga o'tirishibdi.

Qarg'alar hayron bo'lgancha bir-birlariga qarar va gumonsirab:

– Kim mening ovqatimga tegdi? Sharbatimdan kim ichdi? – deb so‘rar edilar. Ular birorta odam bu yerga kirgan shekilli deb gumonsirayotgan bir paytda, yettinchi qarg‘a kosachasidan o‘ziga tanish uzukni topib olibdi. Xursandligidan shodligi ichiga sig‘may ketib:

– Akajonlar! Mehribon onajonimizning uzugi bu yerga qanday kelib qoldi? Nahotki, singlimiz bizni izlab, bu yerlarga kelgan bo‘lsa? Balki u bechora bizni qutqarmoqchidir!

Bu so‘zlarni eshitgan qizcha ortiq chidab turolmay, yashiringan joyidan chopib kelib, mehribon akajonlarining bag‘riga otilibdi. Shu payt kutilmagan mo‘jiza yuz berib, qarg‘alar yana qaytadan odamga aylanib qolibdi!

Inoq aka-ukalar va singil bir-birlarini sog‘inch ila bag‘riga bosishibdi va tezda o‘z uylariga, ya‘ni mehribon ota-onalari diydoriga shoshilibdilar.



Sim-Sim tog'i

Qadim-qadim zamonlarda aka va uka yashagan ekan. Akasi juda boy, lekin xasis ekan. Ukasi esa kambag'al bo'lsa-da, juda saxiy ekan. Uning uyida ba'zan yegani bir burda non ham topilmay qolar ekan. Xasis esa ukasining qiynalgan damlarida unga yordam berishni xayoliga ham keltirmas ekan.

Kunlarning birida saxiy aravachasini yetaklab, o'rmonga o'tin terгани boribdi. Qarasa, ro'parasidan bir tog' chiqib qolibdi. Bu yerlarga u ko'p marotaba kelgan bo'sa ham ushbu tog'ni ilk bora ko'rishi ekan. U tog' tomonga angrayib, hayrat bilan qarab turgan bir paytda, otlarning dupur-dupuri eshitilib qolibdi. Kutilmaganda 12 nafar otliq qaroqchilar yetib kelibdi. Ularning qiyofasi juda qo'rqinchli ekan. «Bular, hoynahoy, qaroqchilar bo'lsa kerak!», ko'nglidan o'tkazibdi saxiy. U darhol aravachasini yashirib, daraxt tepasiga chiqib, qaroqchilarni kuzata boshlabdi. Qaroqchilar tog'ning yaqiniga kelib: «Ochil Sim-Sim! Ochil Sim-Sim!» deya hammalari baravariga baqirishibdi. Shu payt ajoyib bir mo'jiza yuz beribdi! Tog'ning og'zi qarsillab yorilib, o'rtada bir yo'lakcha paydo bo'libdi! Qaroqchilar ana shu

yo‘lakdan tog‘ ichiga kirib, bir zumda ko‘zdan g‘oyib bo‘libdilar. Tog‘ yana boyagiday yopilib, o‘z holatiga qaytib qolibdi. Ko‘p o‘tmay tog‘ yana ochilib, yelkalalariga og‘ir-og‘ir qop ortib olgan boyagi qaroqchilar qaytib chiqishibdi. Endi ularning hammalari baravariga: «Yopil Sim-Sim! Yopil Sim-Sim!» deya baqirishibdi. Tog‘ yana o‘z asliga qaytib qolibdi.

Qaroqchilar ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi bilanoq, saxiy daraxtdan sakrab tushibdi va qanday qilib bo‘lsa-da, bu jumboqning sirini bilib olishga qaror qilibdi. Saxiy tog‘ga yaqin kelib: «Ochil Sim-Sim! Ochil Sim-Sim!» deb qichqirgan ekan, shu zahoti tog‘ og‘zi qarsillab ochilibdi! U chaqqonlik bilan yo‘lakcha orqali tog‘ ichiga kirib olibdi. Ajoyibotni ko‘ringki, hamma yoqda oltin-u kumushlar, dur-u gavharlar, qimmatbaho toshlar uyilib yotgan emish! Biroq saxiy ulardan olishni ham, olmaslikni ham bilmas emish! Nihoyat u dur-u gavharlar, qimmatbaho toshlarga tegmay, cho‘ntagini to‘ldirib oltin olishga qaror qilibdi. Oltinlarni olib, tashqariga chiqqach: «Yopil Sim-Sim! Yopil Sim-Sim!» deb qichqirgan ekan, tog‘ qaytadan yopilib qolibdi. Saxiy aravachasini yetaklab, xursand bo‘lib uyiga jo‘nabdi.

Shu kundan e‘tiboran saxiy to‘kin-sochinlikda tinch hayot kechira boshlabdi. Bir vaqtlar yarim tishlam nonga zor bo‘lgan saxiyning endilikda sharob sotib olishga ham qurbi yetadigan bo‘libdi. Uning faqat o‘zi shod-u xurram-

likda yashamasdan, kambag'allarga ham yordam qo'lini cho'zibdi.

Shu zaylda kunlar o'taveribdi. Nihoyat u keltirgan oltinlar ham tugay deb qolibdi. Saxiy yana tog'ga boribdi. Bu safar ham dur-u gavharlarga qo'l tekkizmay, faqat oltin olib ortiga qaytibdi. U akasidan tarozisini berib turishini iltimos qilibdi. Xasis akaning esa ukasining anchadan buyon bunday farovon hayot kechirayotganidan hasadi kelib yurgan ekan. Xasis akaga esa «Shuncha boylik qayerdan kelib qoldi? Ukam tarozini olib nima tortmoqchi ekan?» kabi savollar tinchlik bermay qo'yibdi.

Shundan so'ng xasis o'z ukasiga hiyla ishlatish payiga tushib qolibdi va tarozini berishdan oldin uning tagiga yelim surtib qo'yibdi. Ertasi kuni ukasi tarozini akasiga qaytarib beribdi. Biroq tarozining tagidagi yelimga bitta oltin yopishib qolganligini sezmay qolibdi.

Xasis ukasidan: «Tarozida nima tortding?», deb so'ragan ekan, ukasi: «Picha bug'doyim bor edi, o'shani tortdim», deb javob beribdi. Shu payt akasi yopishib qolgan haligi oltinni ko'rsatib: «Unda mana bu nima? Meni laqillatib bo'psan! Menga to'g'risini aytmasang, hammasini qoziga borib chaqaman!», deya po'pisa ham qilib qo'yibdi. Akasining dag'dag'asidan cho'chigan saxiy bo'lgan ishlarning barini aytishga majbur bo'libdi.

Shu zahotiyoyq xasis ot-aravasini olib, o'sha tog' tomonga jo'nabdi. U manzilga yetib qol-

gach: «Ochil Sim-Sim! Ochil Sim-Sim!», deyishi bilan tog' sharaqlab ochilibdi. Xasis tog' ichiga kirib, oyoq ostida qaynab yotgan oltinlarni ko'rib, ko'zlari yonib ketibdi! U ochko'zlik qilib, dur-u gavharlar, qimmatbaho toshlardan ko'targanicha olibdi. Uning xayoli boyliklardan imkon qadar ko'proq olish bilan band bo'libdi. Shuning uchun ham tog'ning nomi esidan chiqib: «Ochil Simeli, Ochil Simeli!», deb baqiribdi, lekin tog' sira ochilmasmish. Chunki tog'ning nomi «Simeli» emas ekan-da!

Xasis borgan sari qo'rqib, xayoli badtar ayqash-uyqash bo'lib ketibdi. Qorni ham ochqabdi. Biroq oltin-kumushlarni yeb bo'lmas, bunday paytda shuncha boylikni zarracha foydasi tegmas ekan. U har qancha eslashga urinmasin, baribir tog'ning nomini eslolmabdi.

Kechga borib tog' og'zi ochilib, yo'lakdan o'n ikkita qaroqchi kirib kelibdi. Ular qo'rqinchli ovozlari bilan: «Ha, yaramas! Qo'lga tushdingmi? Ikki marta bu yerga kirib, har gal qochib qutulganding! Endi bu uchinchisi! Sen uchun esa oxirgisi bo'ladi! Bu yerdan faqat o'ling chiqadi!»

Xasis esa bu gaplarga javoban: «U men emasdim! Bu yerga oldin mening ukam kelgan!» deya qo'yib yuborishlarini yalinib-yolvorib so'rabdi. Lekin endi bu chiranishlar-u yalinishlarning foydasi bo'lmasdi. Qaroqchilar uni bu qilmishi uchun qattiq jazolashibdi.

Ochko'zlikning oqibati shu bo'lsa kerak!

Bo'ri bilan yetti uloqcha

Bir zamonlar qari bir echki va uning yettita uloqchasi bo'lgan ekan. Odamlar o'z farzandlarini jonidan ortiq ko'rganlari kabi ona echki ham o'z uloqchalarini shu qadar yaxshi ko'rarkan. Kunlardan bir kun u o'rmonga borib, uloqchalariga ovqat olib kelmoqchi bo'libdi. Ketish oldidan ona echki yetti nafar uloqchasini yoniga chaqirib, shunday debdi:

– Aziz bolalarim, men o'rmonga ketaman. Bo'ridan ehtiyot bo'linglar. Agar u uyga kirsa bormi, hammalaringizni yeb qo'yishi aniq. Bo'ri juda ham ayyor bo'ladi. U o'zini har maqomga soladi. Ammo sizlar uni do'rillagan yo'g'on ovozi va qora panjalaridan darrov tanib olishingiz kerak.

– Biz, albatta, ehtiyot bo'lamiz, aytganlarinigizni bajaramiz. Onajon, bizdan xavotir olmang, ketavering, – deb javob qaytaribdi uloqchalar.

Qari echki «maa-maa-maa»lab bolalari bilan xayrlashgancha yo'lga tushibdi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay eshik taqillab qolibdi. Eshik ortidan:

– Eshikni ochinglar, bolajonlarim, onangiz keldi va har biringizga narsalar olib keldi, – degan ovoz eshilibdi. Biroq uloqchalar do‘rillagan ovoz egasi bo‘ri ekanligini sezib, shunday deyishibdi:

– Biz eshikni ochmaymiz, sen bizning onamiz emassan. Onamizning ovozi ingichka va yoqimli, sening ovozing esa yoqimsiz. Sen bo‘risan! – deyishibdi.

Bu voqeadan so‘ng bo‘ri ovozi ingichka va nozik qilish uchun qandaydir ichimlik ichibdi. Uning ovozi echkiniki kabi nozik bo‘lib qolibdi. Bo‘ri yana echki bolalari turgan uychaga boribdi. Eshikni taqillatib, shunday debdi:

– Eshikni ochinglar, bolajonlarim, onangiz keldi, har biringizga bir narsa keltirdi.

Biroq bo‘ri o‘zining qora oyoqlarini deraza tokchasiga qo‘ygan ekan, buni ko‘rgan uloqchalar:

– Eshikni ochmaymiz. Onamizning oyog‘i seniki kabi qora emas. Sen bo‘risan! – deyishibdi yana. Shunda bo‘ri tegirmonchining oldiga yugurib borib, oyog‘iga biroz un sepib qo‘yishini so‘rabdi. Tegirmonchi esa «Bo‘ri birovni aldamoqchi, shekilli» deb o‘ylab, bunga rozi bo‘lmabdi.

– Agar panjalarimga un sepmasang, – debdi bo‘ri tegirmonchiga, – o‘zingni ham yeb qo‘yaman. – Bo‘rining gaplaridan yuragi yorilayozgan tegirmonchi qo‘rqqanidan, uning panjalariga un sepib qo‘yibdi.

Nihoyat bo'ri uchinchi marta uloqchalar turgan uyga borib, yana eshikni taqillatibdi va shunday debdi:

– Bolajonlarim, eshikni ochinglar, onajoninigiz uyga qaytdi, sizlarga o'rmondan har xil narsalar olib keldi!

Uloqchalar bir ovozdan:

– Avval panjalariningni ko'rsat, biz onamiz ekaningni ko'raylik, – deyishibdi. Shunda bo'ri panjalarini derazadan ko'rsatibdi. Uloqchalar qarashsa, oppoq panjalar ekan. Uloqchalar bu gal chindan ham onamiz keldi, shekilli, deb o'ylab, eshikni ochishibdi. Ammo uyga kirgan bo'ri ekan. Uloqchalar undan qo'rqib har tomonga qochib berkinibdilar. Biri stol ostiga, ikkinchisi karavotdagi ko'rpacha ichiga, uchinchisi o'choq ichiga, to'rtinchisi oshxonaga, beshinchisi shkafga, oltinchisi tog'ora ostiga, yettinchisi esa devor soatining qutisi ichiga kirib yashirinibdi. Bo'ri esa uloqchalarni tezda topib olibdi, ko'p o'ylab o'tirmay og'zini katta ochib, ularni birmabir yutib yuboribdi. Faqat soat qutichasi ichiga yashiringan eng kenja uloqcha topilmabdi. Bo'ri qornini to'yg'izib olgach, uydan chiqib ketibdi. Ko'm-ko'k maysazordagi bir daraxt tagiga borib, cho'zilib olganча uxlay boshlabdi.

Ko'p o'tmay ona echki o'rmondan uyiga qaytib kelibdi.

– E voh, bu nimasi! – uychasi ichidagi holatni ko'rib, hayron bo'lib qolibdi ona echki.



Qarasa, uy eshigi lang ochiq emish, stol-stullar ag'dar-to'ntar bo'lib yotganmish, tog'ora singan, ko'rpa-to'shak va yostiqlar yerda to'zib yotganmish. U bolalarini izlashga tushibdi, biroq ularni hech qayerdan topa olmabdi. Ona echki uloqchalarining laqabini aytib chaqiribdi, lekin ularning hech biri javob bermabdi. Va nihoyat u kenjatoyini chaqirgan ekan, bir joydan ingichka ovoz eshilibdi: «Onajon, men soat qutisi ichiga yashiringanman!» Echki qutini ochib, bolasini chiqarib olibdi. Omon qolgan uloqcha uyga bo'ri kelganini va uloqchalarning hammasini yeb qo'yganini aytibdi. Ona echki uloqchalari dog'ida zor-zor yig'labdi.

Alamzada ona echki dod solganicha uyidan chiqib ketibdi. Kenja uloqcha ham unga ergashibdi. Ular maysazorga yetib borishibdi. Qarashsa, bo'ri daraxt tagida uzalغانicha xurрак otib uxlayotgan emish. U shu qadar xirillab uxlar ekanki, xurрак ovozidan, hatto daraxt shoxlari ham tebranayotganmish. Echki har tarafdin bo'rini kuzatibdi. Yaxshilab e'tibor berib qarasa, uning shishib chiqqan qornida bir nimalar qimirlab tipirchilayotgan ekan. «Yo tavba, nahotki bu qimirlayotgan mening bolalarim? Demak, bechora bolalarim hamon tirik!» deb o'ylabdi echki. Shundan so'ng kenjatoyiga uyidan tezda qaychi, igna va ip olib kelishni buyuribdi. Uloqcha tezda onasining aytganini bajaribdi. Ona echki esa bo'rining qornini biroz kesgan

ekan, uloqchalardan biri yoriqchadan boshini chiqaribdi. Shundan so'ng birin-ketin ona echki bo'rining qornidan bolalarini qutqarib olibdi. Ochko'z bo'ri chaynamasdan yutib yuborgan olti nafar uloqcha sakrab-sakrab eson-omon yana tashqariga chiqib olishibdi. Uloqchalarning yana onalari bag'riga eson-omon qaytganlariga quvonchlari cheksiz ekan. Ular onajonlariga erkanib, suykalishib, sakrab-sakrab shodlanib o'ynabdilar. Ona echki esa bolalariga shunday deb buyuribdi:

– Boringlar, qayroqtosh olib kelinglar, biz ularni uxlab yotgan ochko'z bo'rining qorniga joylaymiz.

Yetti nafar uloqcha shosha-pisha qayroqtoshlardan bir qanchasini terib kelishibdi. Ona echki esa toshlarning barchasini bo'rining qorniga joylabdi va tezlik bilan uning qornini tikib qo'yibdi. Bo'ri esa hech nimani sezmadib, hatto biron marta qimirlab ham qo'ymabdi.

Uxlay-uxlay qovoqlari shishib ketgan bo'ri uyg'onib qarasa, qorniga og'ir bir narsa kirib olib, shaqirlayotgandek tuyulibdi unga. Shu payt bo'rining suv ichgisi kelib qolibdi. Quduq yoniga borish uchun o'rnidan biroz qo'zg'algan ekan, qornidagi toshlar bir-biriga urilib, «shaqir-shuqur» qilarmish. Bo'ri hayron bo'lib shunday debdi:

*«Shaqir-shuqur» etar qornim,
Yo ko'proq yeb qo'yibmanmi?*

*Olti uloq yedim desam,
Qayroqtoshlar yutibmanmi?*

U quduq yoniga zo'rg'a yurib borib, suv ichish maqsadida pastga engashgan ekan, qornidagi og'ir toshlar uni pastga qarab tortib ketibdi. Buni ko'rgan yettita uloqcha va ona echki quduq yoniga yugurib borishibdi. Haqiqat yuzaga chiqib, ochko'z bo'ri o'z jazosini olganidan xursand bo'lib, sakrab-sakrab quduq atrofida o'yinga tushishibdi.



Quyov bilan Tipratikan

Qadrli bolajonlar! Ehtimol, bu ertak sizga uydirmadek tuyular? Aslida esa bularning bari bo'lgan voqea. Chunki bobom menga uni qachon aytib bergan bo'lmasin, u har gal: «Bu ertakda haqiqat bor, bo'lmasa, odamlar shu kunlarga qadar buni gapirib yuri-sharmidi?» derdi.

Voqea mana bunday bo'lgan ekan...

Jazirama yozning yakshanba kunlaridan biri. Bug'doy ayni gullagan paytlar ekan. Ko'm-ko'k osmonda quyosh porlar, ertalabki iliq shabada dalalarda mayin esarkan. To'rg'aylar baland parvoz qilib sayrashar, asalarilar bug'doyning gullaridan gullariga qo'nib, g'o'ng'illagan bir payt ekan. Odamlar esa xuddi bayramdagi singari kiyinib, ko'chaga chiqisharkan. Borliqdagi jamiki tirik jon xursand, Tipratikan ham behad shod ekan.

Dam olish kunlarini yaxshi ko'radigan Tipratikan bu gal ham ertalabki toza havodan nafas olgancha, o'z uyi oldida turgan ekan. Sevimli qo'shig'ini xirgoyi qilayotib, uning xayoliga: «Ertalabdan dalani bir aylanib, shol-

g'omlarimdan bir xabar olib kelsammikin?» degan fikr kelibdi.

Sholg'om esa shundaygina uyning yaqinidagi dalaga ekilgan ekan. Tipratikan butun oilasi bilan shu daladan hosil olar ekan. Shu bois ham ushbu dalani o'ziniki deb hisoblashar ekan.

Tipratikan uyi eshigini asta yopib qo'yibdi-da, dala tomonga yo'l olibdi. Butani aylanib, dalaga endi o'tmoqchi bo'lib turgan Tipratikan-ning oldidan kutilmaganda Quyon chiqib qolibdi. Quyon ham o'z dalasiga «Karamlarimdan bir xabar olib kelay» deb ketayotgan ekan. Tipratikan xushmuomalalik ila Quyon bilan salomlashibdi, undan hol-ahvol so'rabdi. Biroq quyon manmanlik qilib gerdayganicha Tipratikanning salomiga alik ham olmabdi. Aksincha, unga aftini burishtirib debdi:

– Saharlab dalada nima qilib tentirab yuribsan?

– Sayr qilib yuribman, – deb javob beribdi Tipratikan.

– Sayr qilib yuribman, deysanmi? – debdi Quyon uning ustidan kulgancha. – Yaxshisi, oyoqlaringdan boshqa biron foydaliroq ishda foydalan! Ular, menimcha, sayr qilish uchun yaratilmagan.

Bu javob Tipratikanga juda qattiq tegibdi. U har qanday dakkiga chiday olar ekan-u, biroq oyoqlari to'g'risida og'iz ochishlariga hech yo'l

qo'ymas ekan, chunki uning oyoqlari qiyshiq ekan-da!

– Sen ko'p manmanlik qilma, – debdi Tipratikan. – Nima, sening oyoqlaring menikidan yaxshiroq ekanmi?

– Bo'lmasa-chi, – debdi Quyon.

– Buni sinab ko'rish kerak, – debdi Tipratikan. – Garov o'ynayman, agar ikkalamiz kimo'zarga yugursak, albatta, men yutaman!

– Kimo'zarga yugursak, albatta, u yutar emish, kulgili gap-ku bu, qiyshiq oyoqlaring bilan-a? – mazax qilib kulibdi quyon.

– Mayli, sen shunchalik istasang, men roziman. Nimadan garov o'ynaymiz?

– Bu yilgi hosilimizdan.

– Kelishdik, – debdi Quyon, – unda hozir bo'lishaylik.

– Yo'q, buncha shoshilishning nima keragi bor? Men hali hech nima yeganim yo'q, och-nahorman. Uyga borib, nonushta qilib olay. Tush paytida shu yerga qaytib kelaman.

Quyon rozi bo'libdi, Tipratikan esa uyiga qarab yo'l olibdi. Tipratikan yo'l bo'yi o'ylabdi: «Quyon o'zining uzun oyoqlariga ishonadi, lekin men uni yengib chiqaman. Quyon nomdor janoblardan bo'lsa-da, g'irt anqov. U menga yutqizishi aniq».

Tipratikan uyiga kelgach, xotiniga shunday debdi:

Tezroq tayyorlan, men bilan dalaga borasan!

– Nima uchun? – deb so‘rabdi xotini.

– Quyon bilan bu yilgi hosildan garov o‘ynab qo‘ydim. U bilan kimo‘zarga yugurmoqchiman, sen ham shu yerga borib, menga yordam berib turishing kerak.

– Lekin qanday qilib? Axir siz qanday qilib Quyonni yugurishda ortda qoldira olasiz? Buni eplolmaymiz. U bizdan yuz chandon tezroq yuguradi-ku!

– Jim bo‘l! – debdi Tipratikan, – bu yog‘ini men yaxshilab o‘ylab qo‘yganman. Qani, sen tezda mening ortimdan yur-chi!

Xotini uni bu qaroridan qaytarishga qanchalik urinmasin, o‘ziga ishongan Tipratikan aslo fikrini o‘zgartirmabdi. Xotini ham erining ortidan ergashib dalaga yo‘l solibdi. Yo‘lda ketatilib, Tipratikan xotiniga tushuntiribdi:

– Gapimni yaxshilab tingla va aytganlarimni so‘zsiz bajar! Shunda biz, albatta, yutib chiqamiz! Biz dalaning anavi boshidan turib musobaqani boshlaymiz. Quyon bir jo‘yakdan, men ikkinchi jo‘yakdan yuguraman. Yugurish boshlangan dalaning narigi baland boshidan men turaman. Sen esa xuddi mana shu yerda, jo‘yakning ichida Quyonni kutib turasan. Quyon yetib kelishi bilan: «Men shu yerdaman!» – deb aysang bo‘lgani.

Ular dalaning boshiga yetib kelgach, Tipratikan xotiniga turadigan joyini ko‘rsatibdi. O‘zi esa dalaning narigi boshiga qarab ketibdi. Tipratikan yetib kelsa, Quyon o‘sha yerda ekan.



– Boshlaymizmi? – so‘rabdi Quyon.

– Ha, albatta, boshlaymiz, – javob beribdi Tipratikan.

Har biri o‘z jo‘yagiga tushib olishibdi. Quyon: «Bir, ikki, uch!» deb sanabdi-yu, dalaning u boshiga shamolday yugurib ketibdi. Tipratikan esa uch-to‘rt qadam yugurib, so‘ng koptokdek dumaloq bo‘lib olib, jo‘yakning bu boshida maza qilib dam olib yotibdi. Quyon bor kuchi bilan g‘izillab yugurib, jo‘yakning bu boshiga yetib olgan ekan, Tipratikanning xotini unga: «Men shu yerdaman!» debdi. Quyon hayratdan qotib qolibdi. U bu Tipratikanning xotini ekanligini payqamabdi ham. Chunki er-xotin tipratikanlar bir-biriga ikki tomchi suvdek o‘xshashar ekan-da! Biroq Quyon nima bo‘layotganiga tushunmay lol emish. «Buning bir balosi bor», – deb o‘ylab ham qo‘yibdi. «Yur, jo‘yakning u boshigacha yana bir bora chopib, bellashib ko‘ramiz!» deb qichqiribdi u va nihoyat Quyonga. Quyon bu gal shu qadar tez yuguribdiki, quloqlari shamolning zo‘rligidan uzilay debdi. Tipratikanning xotini esa ikki-uch qadam chopgan bo‘lib, yana o‘sha joyida qolaveribdi. Quyon marraga yetib kelishi bilan: «Men shu yerdaman!» deb Tipratikan chiqib kelibdi. Quyon g‘azabga to‘lib qichqiribdi:

– Yur, yana orqaga qarab yuguramiz!


– Ixtiyor o‘zingda, menga baribir, qancha desang, shuncha yuguraveraman, – debdi Tipratikan.

Quyong shu tarzda yana juda ko'p marta yuguribdi. Biroq jo'yakning qaysi boshiga chopib bormasin, baribir, Tipratikan yoki uning xotini: «Men shu yerdaman!» deb javob bera-verishibdi. Eng so'nggi marta chopishganida esa Quyong jo'yakning u boshiga yetolmay, dalaning qoq o'rtasida holsizlikdan yiqilib, hatto qimirlashga ham kuch topolmay qolibdi. Tipratikan esa garovda g'olib bo'lib, Quyongning bu yilgi hosilining egasiga aylanibdi. U jo'yak boshida turgan xotinini chaqiribdi va er-xotin tipratikanlar xursand bo'lib o'z uylariga qaytib kelibdilar.

Shu voqeadan so'ng hech qachon Quyong Tipratikanlar bilan kimo'zarga yugurmaydigan bo'libdi.

Qissadan hissa shuki, manmanlik, dimog'dorlik va maqtanchoqlikning oxiri voy. Shu jumladan, Quyong ham qanchalik dongdor va tezchopar bo'lmasin, Tipratikanni kalaka qilishga haqli emasdi.

Ana shunaqa, aziz kichkintoylar! Siz ham hech qachon manman bo'lmang!



Qizil qalpoqcha

O'tgan zamonda jajjigina bir qizaloq bo'lgan ekan. Unga barchaning havasi kelarkan. Buvisi esa hammadan ham ko'proq yaxshi ko'rar ekan. Hatto unga borini berishga tayyor ekan. Kunlardan bir kun g'amxo'r va mehribon buvi qizaloqqa qizil baxmaldan tikilgan qalpoqcha sovg'a qilibdi. Qalpoqcha qizga shunday yarashibdiki, ayniqsa, qizning o'ziga juda ham yoqib qolibdi. Qizaloq shu kundan boshlab qalpoqchani boshidan qo'ymay kiyibdi. Shu bo'libdi-yu, atrofdagilar qizaloqni Qizil qalpoqcha deya chaqiradigan odat chiqaribdi.

– Qizil qalpoqcha, – debdi bir kuni onasi, – mana bu pishiriq va murabboni buvingnikiga olib bor. Ularning toblari yo'q. Shoyad seni ko'rib tuzalib qolsalar. Tezroq bo'l, bo'lmasa kech qolib ketasan! Faqat katta yo'l bo'ylab yur! Yo'lda ehtiyot bo'l! Yiqilib tushmagin tag'in! Agar sirpanib yiqilib tushsang, shisha idishdagi buving yaxshi ko'rgan murabbo ham yerga to'kiladi. Buvingning oldiga hech narsasiz borishingga to'g'ri keladi, bundan buving xafa

bo'ladi. Ha, aytgancha, buvingning oldiga kirishing bilan salom berishni unutma!

– Hammasini siz aytganday qilaman, oyi-
jon, – deb Qizil qalpoqcha onasi bilan xayrla-
shib, yo'lga chiqib ketibdi.

Qizil qalpoqchanning buvisi o'rmon ichida yashar ekan. So'qmoq bo'ylab yurib borayotgan qizaloq o'rmonga kirishi bilanoq bo'riga duch kelib qolibdi. U bo'ri-ning yovuz va jahldor hayvon ekanligini bilmas ekan, shuning uchun undan qo'rqmabdi ham.

– Salom Qizil qalpoqcha, – debdi bo'ri.
– Senga ham salom, bo'rivoy.
– Ertalabdan qayerga ketyapsan?
– Buvimning oldilariga boryapman.
– Tugunchangda nima olib ketyapsan?
– Pishiriq bilan murabbo. Buvimni xursand qilish uchun kecha pishirdik. Buvijonim kasal va behol bo'lib qolganlar. Zora shu bilan sog'ayib ketsalar.

Buving qayerda yashaydi?

– Buvim o'rmonning ana u tomonida yashaydilar. U yer uncha olis emas. Buvijonimning uylari uchta katta chinor daraxti yaqinida. U joydan biroz pastroqda yong'oqzor ham bor. Sen u joylarni yaxshi bilsang kerak? – debdi qizil Qalpoqcha.

Qizaloqning gaplarini eshitgan bo'ri o'zicha o'ylabdi: «Yoshgina ekan, yaxshi bir luqma bo'ladi. Kampirning go'shtiga nisbatan mazali

bo'lsa kerak bu. Biroq har ikkovlarini ham qo'ldan chiqarmasligim kerak. Buning uchun ayyorona harakat qilmasam bo'lmaydi». U Qizil qalpoqcha bilan biroz yonma-yon yuribdi, so'ng-
ra shunday debdi:

– Qizil qalpoqcha, atrofga qaragin, qanaqa chiroyli gullar! Nahotki, sen gullarni yaxshi ko'rmasang? Eshityapsanmi, qushlar qanday sayrayapti! Sen bo'lsang, maktabga borayotgandek, shoshilib ketyapsan. Axir o'rmonga kelgandan keyin biroz dam olish lozim, atrofni tomosha qilish kerak. Bilasanmi, o'rmonda vaqtini naqadar mazmunli o'tkazish mumkin?

Qizil qalpoqcha atrofga nazar solgan ekan, chindan ham daraxtlarning bargi siyrak joylaridan tushayotgan oftobning zarrin nurlari goh bu yerda, goh u yerda jilvalanar, atrof turli chiroyli gullarga burkangan ekan. Bularni ko'rgan Qizil qalpoqcha:

– To'g'ri gapiryapsan, bo'rivoy, buvimga bu yerdagi gullardan guldasta olib borsam, xursand bo'ladilar. Hali vaqtli-ku, ulguraman yetib borishga, – deb o'ylab, katta qatnov yo'ldan chiqib, qalin o'rmon tomonga qarab ketibdi. Gullardan uzib, guldastalar yasay boshlabdi. Qarasa, gullarning bari bir-biridan go'zal emish. U yanada chiroyli gullarni uzaman deb tobora o'rmon ichkarisiga qarab ketaveribdi.

Bo'ri esa bu orada buvisining uyiga yetib borib, eshikni taqillatibdi.



– Kim bu?

– Men Qizil qalpoqchaman. Sizga pishiriq bilan murabbo olib keldim, eshikni oching.

– Tugmani bos, o‘zi ochiladi, – debdi buvi, – tobim yo‘q, o‘rnimdan tura olmayman.

Bo‘ri tugmani bosgan ekan, darhol eshik ochilibdi, u kampir yotgan karavot yoniga bo‘ribdi-da, kampirni bir urinishda yutib yuboribdi. So‘ngra kampirning kiyimini kiyib, ro‘molini ham o‘rab, ko‘zoynagini taqib, uning joyiga kirib olibdi va hatto pardani yopib qo‘yishni ham unutmabdi.

Qizil qalpoqcha esa o‘ziga yoqqan gullardan katta guldasta yasabdi. Guldasta shunchalik katta ekanki, uni zo‘rg‘a ko‘tarib, buvisining uyi tomonga qarab ketibdi. Uycha yoniga kelib qarasa, eshik lang ochiq emish. Hayron bo‘libdi Qizil qalpoqcha. Ichkariga kirib qarasa, barcha narsalar o‘zgacha sirli tuyulibdi. «Ajabo, nima uchun men juda qo‘rqib ketyapman, – o‘ylabdi qizaloq. – Axir oldin kelganlarimda bunaqa qo‘rqmas edim-kul!»

– Assalomu alaykum, – debdi Qizil qalpoqcha. Biroq hech kim javob qaytarmabdi. Shundan so‘ng karavot oldiga borib, pardani ochibdi. Qarasaki, buvisi o‘z joyida yotibdi. Yuzigacha ro‘molini qattiq qilib bog‘lab olgan «buvijonisi» bu gal qizaloqning ko‘ziga juda ham g‘alati ko‘rinibdi.

– Buvijon, quloqlaringiz nimaga buncha katta? – deb so‘rabdi Qizil qalpoqcha.

– Seni yaxshiroq eshitish uchun.

– Buvijon, ko‘zlaringiz nima uchun bu qadar katta-katta?

– Seni yaxshiroq ko‘rish uchun.

– Buvijon, qo‘llaringiz nima uchun bunchalik uzun?

– Seni tutish oson bo‘lishi uchun.

– Buvijon, og‘zingiz nega bunchalik katta?

– Seni osongina yutib yuborish uchun.

– Bo‘ri shunday debdi-yu, o‘rnidan sakrab turib, bechora Qizil qalpoqchani yutib yuboribdi. O‘z nafsini ustalik bilan qondirgan bo‘ri yana to‘shak ichiga kirib olibdi va uyquga ketibdi. Shu qadar qattiq xirillab uxlabdiki, kulbaning yonidan o‘tib ketayotgan ovchining qulog‘iga beixtiyor bu ovoz chalinibdi. Kimning xurrak ovozi ekaniga hayron bo‘lgan ovchi: «Qari kampir nega bunchalik xirillayapti, unga biron nima bo‘ldimikan? Balki kampirga yordam berish kerakdir?» deb o‘ylab, uy ichkarisiga kiribdi, uning karavoti yoniga boribdi. Qarasa, to‘shakda bo‘ri uxlab yotgan emish. «Ha, sen makkor, shu yerdamiding! O‘zim ham seni ko‘pdan beri izlab yuruvdim», debdi ovchi. U bo‘rini otmoqchi bo‘lib nishonga olgan ekan, miyasiga shunday fikr kelib qolibdi: «Mabodo, bo‘ri kampirni yeb qo‘ygan bo‘lsa-chi? Ehtimol, kimnidir qutqarish mumkindir?» Ziyrak ovchi bo‘rining qornini yorib, Qizil qalpoqchani qutqarib olibdi. Bo‘rining qornidan sakrab tushgan qizcha: «Oh, judayam

qo'rqib ketdim. Bo'rining qorni qop-qorong'i ekan!» debdi. Bo'rining qornidan qari kampir ham tirik chiqib olibdi. U zo'rg'a nafas olar ekan. Qizil qalpoqcha yugurib borib, toshlarni yig'ib ko'tarib kela boshlabdi. Ular bu toshlarni bo'rining qorniga joylashibdi. Sal o'tmay bo'ri uyqudan uyg'onibdi, endi juftakni rostlab qolmoqchi bo'lgan ekan, gavdasiga toshlar og'irlik qilib yiqilib tushib, o'lib qolibdi.

Uchovlari ham xursand bo'lishibdi. Ovchi bo'rining terisini shilib olib, uyiga qaytibdi. Buvisi esa Qizil qalpoqcha keltirgan pishiriq va murabboni maza qilib yeb olibdi. Ancha sog'ayib kuchga kiribdi. Qizil qalpoqcha esa: «Bundan keyin onamning ijazatisiz hech qachon katta yo'ldan chetga chiqib ketmayman» deya o'z-o'ziga va'da beribdi.

Aytishlaricha, oradan vaqtlar o'tib, Qizil qalpoqcha buvisiga yana pishiriq va murabbo olib boribdi. Bu gal u boshqa bo'riga duch kelibdi. Bo'ri Qizil qalpoqchani katta yo'ldan adashtirmoqchi bo'lib, qancha harakat qilmasin, endilikda juda hushyor bo'lib qolgan qizaloq o'z yo'lidan ketaveribdi. Buvisiga yo'lda bo'ri uchraganini, qizaloq unga salom berganini, ammo bo'ri qizga jahl bilan qaraganini va katta yo'ldan yurmayotgan bo'lganida, yeb qo'yishi mumkinligini aytib beribdi.


– Shunday degin, – debdi buvisi Qizil qalpoqchaga, – kel, unda eshikni qulflab olamiz, toki u ichkariga kirolmasin!

Birozdan so'ng bo'ri eshikni taqillatibdi. Biroq Qizil qalpoqcha bilan buvisi jim o'tiraverishibdi, eshikni ochishmabdi. Bo'ri uy ichkarisiga kirmoqchi bo'lib, uning atrofini bir necha bor aylanib chiqibdi ham. Biroq u yerga kira olmabdi. Nihoyat, tomga chiqib olib, Qizil qalpoqchaning kechqurun qachon uyga qaytishini poylab yotaveribdi. Uning bu shum niyatini tushunib olgan buvi nevarasiga:

– Chelakdagi go'sht pishirilgan suvni tog'oraga to'k! – deb buyuribdi.

Qizil qalpoqcha tog'ora limmo-lim to'lguncha, suv keltirib solaveribdi. Bo'ri esa nimaningdir xushbo'y hidi taralayotganini sezib, hidlay boshlabdi. Kulbaning mo'risidan bo'ynini cho'zgan ham ekanki, gavdasini tutolmay pastga – to'ppa-to'g'ri tog'oraning ichiga tushib ketibdi va suvga cho'kib, o'lib qolibdi.

Qizil qalpoqcha esa ko'ngli xotirjam bo'lib, eson-omon o'z uyiga qaytibdi. O'shandan keyin uni hech kim, hech qachon xafa qilishga jur'at qilolmabdi.




Botir tikuvchi

Yozning yoqimli tong pallasi, tikuvchi yigit derazaning shundoq yonginasiga qo'yilgan stulda o'tirib olgan. Erta tongdan kayfiyati chog'ligidan o'z sevimli ishi bilan astoydil shug'ullanayotgan ekan.

Xuddi shu payt ko'chadan bir murabbofurush ayolning: «Murabbo! Murabbo! Juda yaxshi murabbo!» degan ovozi qulog'iga chalinibdi. Buni eshitgan tikuvchi juda suyunib ketibdi. Derazadan boshini chiqarib: «Xolajon, bu yoqqa keling, xolajon, bu yoqqa keling! Molingizni shu yerda pullaysiz!» debdi sotuvchi ayolga imlab.

Murabbofurush xotin o'zining og'ir savatini ko'tarib, tikuvchining oldiga chiqibdi. Yigit uning hamma ko'zalarini birma-bir ochtirib, xo'p titkilab ko'ribdi, og'ir-yengilligini qo'lida ko'tarib ko'rib, chamalab, hatto obdan hidlab ko'ribdi, axiri: «Murabbo yaxshiga o'xshaydi. Xolajon, menga yarim bankacha tortib bering!» debdi. Murabboning anchasini pullayman, shekilli, deb o'ylagan murabbofurush ayol yarim banka murabboni tortib beribdi-da, xafa bo'lib, chiqib ketibdi. Tikuvchi bo'lsa:



– Bu murabboni menga xudoning o‘zi yetkazdi. U menga kuch-quvvat beradi – deb o‘ylab, nondan bir bo‘lak kesib olib, unga murabbo suribdi.

– Juda shirin bo‘lsa kerak, qo‘limdagi ko‘ylakni tikib tugatib olay, keyin yeyman, – debdi. Murabbo surtilgan nonni esa yoniga qo‘yib, tikishda davom etibdi. Kiyimning choklari esa yirik-yirik chiqaveribdi. Shu orada devorda g‘uj bo‘lib turgan pashshalar murabboning hidini sezib qolib, yopirilib kelib, murabbo surtilgan nonga ketma-ket qo‘nishni boshlashibdi.

– Sizlarni bu yerga kim chaqirdi? – debdi baqirganicha tikuvchi va chaqirilmagan mehmonlarni quva boshlabdi. Biroq buni tushunmagan pashshalar to‘da-to‘da bo‘lib, g‘uvillagancha uchib kelaverishibdi. Axiri, tikuvchining sabr-toqati tugab, jahli chiqib: «Sizlarning adabingizni berib qo‘ymasam bo‘lmaydi, shekilli!» deya yonidagi lattani olib, nishonga olib turib, bir uribdi. Lattani ko‘tarib qarasa, yettita pashsha oyoqlarini cho‘zib yotgan emish.

– Chakki emasman! – deb o‘zining botirligiga qoyil qolibdi tikuvchi. – Buni butun shahar bilib qo‘yishi kerak.

Tikuvchi darhol o‘ziga belbog‘ tikib, ustiga katta-katta harflar bilan: «Bir urishda yettitasini tinchitaman!» degan so‘zlarni ipak ip bilan tikib qo‘yibdi. Quvonganidan uning yuragi dukillab ketibdi.

– Shahar nima bo‘pti? – debdi yana u o‘z-o‘ziga. – Buni butun dunyo bilishi kerak!

Tikuvchi belbog‘ini bog‘lab olib, uzoq mamlakatlarga safar qilishga qaror qilibdi. Chunki uning miyasiga: «Bu kichkinagina ustaxona mening bu jasurligim uchun torlik qiladi!» degan fikr kelib qolibdi. U safarga chiqish oldidan yo‘lga biror yegulik olish uchun butun uyni axtarib chiqibdi. Biroq yashirib qo‘ygan bir bo‘lak pishlog‘idan boshqa hech narsa topolmabdi va uni cho‘ntagiga solib qo‘yibdi. Uydan chiqayotib darvoza oldidagi daraxtning shoxlariga o‘ralashib qolgan bir qushni ko‘rib, uni ham cho‘ntagiga solib olibdi. So‘ngra u xursand bo‘lganicha yo‘lga tushibdi. Tikuvchi juda chaqqon va ozg‘inligidan yo‘l yurib sira charchamabdi. U ketayotgan yo‘l davomida tog‘ bor ekan. Tikuvchi uning eng baland cho‘qqisiga chiqibdi. Qarasa, u yerda bir pahlavon odam chor-atrofni kuzatib o‘tirgan emish. Tikuvchi jasurlik bilan uning yoniga borib:

– Salom, do‘stim, – debdi. – Bu yerda o‘tirib olib bepoyon kengliklarni tomosha qilyapsanmi deyman? Men butun dunyoni kezib chiqishga ahd qildim. Agar xohlasang, sen ham yur!

Pahlavon kishi tikuvchini nazar-pisand qilmay:

– Ey tentak, jonsiz mitti odamcha! Sen qanaqasiga mening do‘stim bo‘lib qolding? Yaxshisi, joning omonligida bu yerdan tuyog‘ingni shiqillatib qol! – deb javob qaytaribdi.

– Sen hali shunaqa fikrdamisan? Mana buni o‘qib ko‘r, kimligimni bilib olasan, – debdi unga tikuvchi va kamzulining tugmalarini yechib, pahlavonga belbog‘idagi yozuvni ko‘rsatibdi. Buni ko‘rgan pahlavonning xayolidan: «Demak, bu kimsa bir urganda yettita dushmani o‘ldirgan ekan-da?» degan o‘y o‘tibdi. Shundan so‘ng unda bu mitti odamchaga nisbatan biroz hayiqish paydo bo‘libdi.

Shunday bo‘lsa-da, pahlavon tikuvchini bir sinab ko‘rmoqchi bo‘libdi. U darhol shu yerda yotgan bitta toshni olib, qo‘lida bir siqqan ekan, toshdan «shir-shir» etib suv tomib ketibdi va u tikuvchiga debdi:

– Qani, botir bo‘lsang, sen ham toshning suvini chiqarib ko‘r-chi!

– Hammasi shumi? – debdi tikuvchi. Bu men uchun o‘yinchoqdek gap-ku! Shunday deya cho‘ntagidan yumshoq bir bo‘lak pishloqni olib bir siqqan ekan, uning suvi «shir» etib oqib ketibdi.

– Qalay, – debdi tikuvchi, – har holda senikidan durustroqmi?

Pahlavon nima deyishini bilmay qolibdi. Uning mitti odamcha bunday jasurlik ko‘rsata olishiga hech ishongisi kelmabdi. Shunda pahlavon yerdan bitta tosh olib, osmonga otibdi. U toshni shunday qattiq otibdiki, ko‘zga arang ko‘rinibdi.

– Qani, go‘dak, sen ham shunday qilib ko‘r-chil!
– Zo‘r otding! – debdi tikuvchi. – Biroq sen aytgan tosh yana yerga qarab tushdi, men otsam, qaytib tushmaydi. U cho‘ntagidagi qushni olib, osmonga otibdi. Ozodlikka chiqqanidan shodlanib ketgan qush balandlarga parvoz qilib, bir zumda ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi va qaytib kelmabdi.

– Qalay, bu senga ma‘qulmi, do‘stim? – so‘rabdi tikuvchi.

– Otishga usta ekansan, qani, ko‘ramiz, biror og‘ir narsani ko‘tara olarmikansan? – debdi pahlavon va tikuvchini yerga ag‘anab yotgan bir tup daraxt yoniga olib boribdi. – Agar kuchli bo‘lsang, menga shu daraxtni o‘rmondan olib chiqishga yordam berasan!

– Jonim bilan! Sen tanasini ko‘tarsang, bas, shox-shabbalarini men ko‘taraman. Nega desang, bular daraxtning tanasidan ko‘ra og‘irroq bo‘ladi, – debdi tikuvchi.

Shunday qilib, pahlavon daraxt tanasini yelkasida ko‘taribdi, tikuvchi esa shoxchalaridan birining ustiga o‘tirib olibdi. Yukining og‘irligidan pahlavon ortiga qaray olmabdi. Chunki bitta katta daraxt va uning ustiga o‘tirib olgan tikuvchini ko‘tarib olishning o‘zi bo‘lmabdi-da!

Tikuvchiga daraxtning ustida o‘tirib ketish juda yoqib qolibdi. U pahlavonga shox-shabba-

larni ko'tarib borish o'yinchoq o'ynagandek gap, deb ko'rsatmoqchi bo'lib, baralla qo'shiq aytib ketaveribdi.

Pahlavon bu og'ir yukni ancha joygacha ko'tarib olib boribdi, nihoyat u:

– Menga qara, hozir daraxtni tashlab yuboraman. Juda charchab ketdim, – deb yuboribdi chidamaganidan. Tikuvchi esa «lip» etib daraxtdan pastga tushibdi. Xuddi daraxtni ko'tarib kelayotgan kishiday ikki qo'li bilan uning shoxlaridan ushlab olibdi va pahlavonga qarab:

– Seni qara-yu, shunday katta gavgang bilan bitta daraxtni ham ko'tarolmading-a? – debdi.

Ular daraxtni o'sha yerga tashlab, yana birga yo'lga tushishibdi. Nihoyat ular bir olcha daraxtining yonidan o'tib qolibdilar. Pahlavon mevalari pishgan daraxtning baquvvat bir uchidan egibdi va debdi:

– Mana bu olchalardan yeb ko'rgin!

Pahlavon shunday deya daraxtning baquvvat bir shoxini tikuvchining qo'liga tutqazib, o'zi uni qo'yib yuboribdi. Biroq jonsiz tikuvchining kuchi daraxt shoxini egib turishga yetmabdi. Daraxt shoxi zarb bilan yana o'z joyiga qaytib qolibdi va tikuvchini baland ko'tarib uloqtirib yuboribdi. U yerga shalpayib tushsa ham o'zini hech narsa bo'lmagandek tutibdi. Shunda pahlavon:

– Seni qara-yu, nahotki shu chiviqday daraxt shoxini ushlab turishga kuching yetmagan bo'lsa?!

– Nega kuchim yetmas ekan? Bir urganda yettitasini tinchitgan kishiga bu nima degan gap?! Shunchaki daraxt ustidan oshib, bir sakradim-da. Chunki pastda ovchilar butalarga qarab o‘q uzishayotgan ekan. Qani, sen ham bir shunday sakrab ko‘r-chi!

Pahlavon ham sakrashga harakat qilgan ekan, oshib tusholmay daraxt shoxiga ilinib qolibdi. Ayyor tikuvchining bu gal ham qo‘li baland kelibdi.

– Sen juda azamat yigit ekansan, yur men bilan, bizning g‘orga boramiz, o‘sha yerda tunaysan, – debdi pahlavon.

Tikuvchi ushbu taklifga rozi bo‘libdi va pahlavon bilan birga g‘orga qarab jo‘nabdi. Ular g‘orga kirganlarida u yerda yana boshqa pahlavonlar gulxan atrofida dam olib, ovqatlanishayotgan ekan. Har birining qo‘lida bittadan qovurilgan qo‘y bor emish. Tikuvchi yon-atrofiga qarab: «Bu joy mening tikuvchilik ustaxonamdan ancha keng ekan» deb o‘ylab qo‘yibdi. Pahlavon tikuvchiga bir karavotni ko‘rsatib, u yerda yaxshilab dam olishi mumkinligini aytibdi. Biroq karavot juda ham katta ekan. Tikuvchi u yerga chiqmabdi, qorong‘i g‘orning bir burchagidan o‘ziga joy topib, o‘sha yerda uxlabdi.

Tun yarmidan oshganida pahlavon uyqudan uyg‘onibdi. Tikuvchi karavotda qotib uxlab qolgan bo‘lsa kerak, deb o‘ylagan pahlavon temir

lom bilan karavot ustiga bir urgan ekan, u ikkiga ajralib ketibdi.

– Xayriyat-e, balodan qutuldim, – debdi pahlavon do‘stlariga va ular tikuvchini o‘ldi deb o‘ylashibdi.

Erta saharda uyg‘ongan pahlavonlar tikuvchi haqida butunlay unutib, o‘rmon tomonga qarab jo‘nabdilar. Bir payt qarashsa, ne ko‘z bilan ko‘rishsinki, ro‘paralaridan tikuvchi kelayotganmish. U juda tetik va quvnoq emish. Pahlavonlarning kayfi uchib, u endi bizni urib o‘ldiradi, deb tum-taraqay qochishibdi.

Tikuvchi esa yo‘lida davom etibdi. U oyoqlari eltgan tomonga qarab yuraveribdi. To‘xtamasdan yugura-yugura nihoyat qirolning qasriga yetib kelibdi. Yo‘lda juda ham charchab qolganidan maysa ustiga cho‘zilishi bilanoq uxlab qolibdi. Tikuvchi uxlab yotganida, uning tepasiga odamlar kelishibdi, u yoq-bu yog‘iga qarab, belbog‘idagi: «Bir urganda yettitasini tinchitaman!» degan yozuvni ko‘rib qolishibdi.

– Bu jasur yigit qayerdan kelib qoldi ekan? Nima uchun u dalaning o‘rtasida yotib oldi ekan? Balki u biron-bir mashhur qahramondir? Qirolga ham buni yetkazish kerakdir? – deyishibdi odamlar. Ular darhol qirolning oldiga borib, voqeani bayon etishibdi.

– Bu odamni qo‘ldan chiqarib bo‘lmaydi, mabodo urush boshlanib qolsa, uning ko‘p foydasi tegishi mumkin, – deyishibdi. Odamlarning

bu gapi qirolga ham ma'qul tushibdi va u saroy xizmatkorlarining biriga noma'lum qahramonni uyqudan uyg'onishi bilanoq saroy qo'shinlari safiga taklif qilishni buyuribdi.

Nihoyat tikuvchi ko'zlarini uqalab, uyqudan uyg'onibdi. Saroy mulozimi esa uyqusi ochilgan tikuvchiga qirolning taklifini yetkazibdi. Tikuvchi esa:

– Bu yerga shu maqsad bilan kelganman. Qirolga chin ko'nglimdan xizmat qilishga tayyorman, – deya javob beribdi va mulozim bilan birgalikda saroyga ketibdi. Uni zo'r tayyorgarlik ila kutib olishibdi, o'zi uchun alohida joy hozirlashibdi.

Biroq qirol askarlari tikuvchini xushlashmabdi. Ular tikuvchining biror joyga yuborilishini xohlashibdi. Bordi-yu, biror kun oralaridan gap o'tib, u bilan urishib qolgudek bo'lishsa, unda hollari nima kechishini o'ylashibdi ular. «Bir urganda yettitamizni tinchitsa-ya?! Bittamiz ham tirik qolmas ekanmiz-da?» degan xayolni boshlaridan kechirgan askarlar qirol huzuriga borishibdi. Ular qirolga:

– Biz bir urganda yetti kishini tinchitadigan odam bilan birga xizmat qilolmaymiz, – deyishibdi.

Bu so'zlar qirolni xafa qilibdi. U bir kishini deb barcha askarlaridan kechishni istamabdi. Tikuvchidan qutulmoqchi bo'libdi-yu, lekin unga javob berib yuborishga jur'ati yetmabdi. Chunki

qirol: «Agar tikuvchining jahli chiqib ketsa, meni va butun askarlarimni yer bilan yakson qilib, taxtga o'zi chiqib oladi», deb qo'rqibdi-da. Shuning uchun ham qirol undan qanday qilib tinchgina qutulish chorasini o'ylay boshlabdi. O'ylay-o'ylay, axiri shunday fikrga kelibdi u va debdi: «Unga, siz jasur qahramon bo'lganingiz uchun qirolning sizga muhim bir topshirig'i bor ekan, denglar!» deb buyuribdi mulozimlariga.

Qirol boshqarayotgan mamlakat o'rmonlarining biriga ikkita bahaybat odam kelib joylashib olgan ekan. Ular o'g'irlik va bosqinchilik qilib, o't qo'yib, odam o'ldirib, saltanatga ko'p zarar yetkazishayotgan ekan. Hech kim o'z jonidan kechib, ularning oldiga yaqinlasha olmas ekan. Agar tikuvchi borib shu ikki bahaybat odamni yengib kelsa, qirol unga o'zining yolg'iz qizini xotinlikka berib, mol-u davlatining yarmini meros qilib qoldirmoqchi bo'libdi. Tikuvchiga yordam tariqasida yuzta otliq askar unga qo'shib yuborishini ham aytibdi.

– Mendek odamga go'zal malikaga uylanib, qirol saltanatining yarmiga ega bo'lish yarashadi! Bunday baxt bizdaylarga har doim ham nasib qilavermaydi, – deb o'ylabdi tikuvchi va bildirilgan taklifga shunday javob beribdi:

– Men u bahaybat odamlarning adabini berib qo'yaman, yuzta askarning keragi yo'q. Bir urganda yettitasini tinchitgan odam ikki kishidan qo'rqarmidi?!

Tikuvchi shunday deya yo'lga o'tlanibdi, rad etishiga qaramasdan yuzta askar ham unga qo'shib berilibdi. O'rmonga yaqinlashib qolishganida tikuvchi askarlarga: «Sizlar shu yerda kutinglar, bir o'zim ularning dodini berib qaytaman!» debdi. So'ngra «lip» etib o'rmonga kirib ketibdi. O'rmon ichkarisiga kirib olgach, to'rt tarafni ko'zdan kechiribdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, tikuvchi bahaybat odamlarga duch kelib qolibdi. Ular katta bir daraxt tagida uxlab yotishgan ekan. Xurraklari ovoztidan daraxt shoxlari ham tebranib ketayotgan emish. Tikuvchi erinmasdan har ikkala cho'ntagini toshga to'ldiribdi va tagida bahaybat odamlar yotgan daraxtga chiqib olibdi. Shoxning qulay joyiga o'rnashib olib, ulardan birining ko'ksiga tosh otishni boshlabdi. Bahaybat odam ancha vaqtgacha buni sezmabdi ham, axiri uyg'onibdi, sherigini turtib debdi:

– Nega meni uryapsan?

– Tush ko'ryapsanmi? Seni urishni xayolimdan ham o'tkazganim yo'q.

Qisqa suhbatdan so'ng ular yana uxlab qolishibdi. Tikuvchi endi ikkinchi bahaybat kishining ustiga tosh tashlay boshlabdi.

– Bu nima qilganing? Axir menga tosh otyapsan-ku?

– Men senga hech narsa otganim yo'q! – deb to'ng'illabdi jahl bilan birinchisi. Ular shu tarzda biroz tortishib toliqishibdi, biroq char-

chab qolganlaridan yana tinchlanib, uyquga ketishibdi. Tikuvchi esa yana o'z o'yinini davom ettiribdi. U cho'ntagidan eng katta toshni olib, bor kuchi bilan birinchi bahaybatning ko'kragiga otibdi:

– Bu endi bema'nilik! – deb qichqiribdi va u telba kishidek o'rnidan irg'ib turib, sherigini boplab do'pposlabdi. Sherigi ham unga kaltak bilan javob qaytaribdi. Shunday qilib, ikki bahaybat kishi bir-biri bilan qattiq janjallashib ketishibdi. Hatto daraxtlarni ham yerdan sug'urib olib, bir-birini qattiq savalashibdi. Nihoyat, ikkovlari ham holdan toyib, yiqilib qolishibdi. Shunda tikuvchi daraxtdan sakrab tushib:

– Bu ham bo'lsa mening omadim! Yaxshiyamki, men o'tirgan daraxtni yerdan sug'urib olishmadi. Bo'lmasa, olmaxonga o'xshab, boshqa daraxtga sakrab o'tishga majbur bo'lardim. Hechqisi yo'q, biz qushday chaqqon odamlarmiz! – U yonidan qilichini sug'urib olib, bahaybat odamlarga bir necha bor sanchib olibdi. So'ngra askarlarning yoniga borib:

– Ish bitdi, ikkalasini ham tavbasiga tayan-tirdim. Lekin bu ish osonlikcha hal bo'lgani yo'q. Ular tang ahvolga tushib qolganlaridan o'zlarini himoya qilish uchun daraxtlarni tagtomiri bilan sug'urib, menga qarab otishdi. Biroq bu harakatlarining foydasi bo'lmadi. Axir bir urganda yettitasini tinchitgan odam bir ishga

bel bog'lasa bormi, hech kim undan qochib qutula olmaydi, – debdi.

– Siz yarador bo'lmadingizmi? – so'rashibdi askarlar. – Yo'q, hech qayerim shikastlangani yo'q, hatto ular menga barmoqlarini ham tekkiza olishmadi.

Askarlar uning gaplariga ishonmasdan, o'z-lari o'rmonga kirishibdi va ikki bahaybat odam-ning ham qonga belanib yotganini ko'rishibdi, atrofda esa tag-tomiridan sug'urib tashlangan daraxtlar yotgan emish.

Tikuvchi qirol huzuriga kelib, va'da qilingan mol-davlatga egalik qilib, malikaga uylanmoqchiligini aytibdi. Biroq qirol bergan va'dasidan pushaymon bo'lib: «Bu xavfli kimsadan qanday qutulsam bo'larkan?» degan fikrni o'ylab qolibdi va undan qutulish yo'llarini izlay boshlabdi.

– Davlatimning yarmi va qizimni olishdan avval, – debdi qirol tikuvchiga, – yana bir jasorat ko'rsatishing kerak. O'rmonda yakkashox degan bir hayvon bor, u saltanatimizga juda ko'p zarar yetkazyapti. Sen uni bizga tutib keltirishing kerak.

– Bir urishda yettitasini tinchitish mening ishim, – debdi-yu qo'liga arqon va boltani olib, o'rmon ichkarisiga jo'nabdi tikuvchi. Unga qo'shib yuborilgan askarlarga esa yana o'sha joyda kutib turishlarini aytibdi.

Tikuvchi yakkashoxni ko'p qidirmabdi. Uning o'zi hech fursat o'tmasdan o'rmonning

ichkarisidan chiqib, tikuvchiga qarab kela boshlabdi. U tikuvchiga shoxini sanchib olmoqchi bo'lib tashlanibdi.

– Sekinroq, sekinroq! Ko'p hovliqma, – debdi tikuvchi. U yakkashox yaqinlashib kelguniga qadar kutib turibdi. So'ngra «lip» etib daraxt orqasiga o'tib olibdi. Yakkashox shiddat bilan chopib kelib, o'zini daraxt tanasiga zarb bilan uribdi, uning shoxi daraxtga shu qadar mahkam sanchilibdiki, uni qayta sug'urib olishga kuchi ham yetmabdi.

– Ha, qo'lga tushdingmi? – debdi tikuvchi va daraxt orqasidan chiqib yakkashoxning bo'yniga arqon solibdi. So'ngra daraxtga sanchilib qolgan shoxni bolta bilan chopib tashlabdi-da, «o'lja»sini sudrab, qirolning oldiga olib boribdi. Biroq qirol bu safar ham va'dasining ustidan chiqmabdi, yana bitta shart qo'yibdi. Unga ko'ra, tikuvchi saltanatga zarar yetkazayotgan yovvoyi cho'chqani ovchilar bilan birgalikda tutib keltirishi kerak ekan.

– Jonim bilan! – deb javob beribdi tikuvchi. – Bu men uchun ish emas! Tikuvchi ovchilarning o'zi bilan birga ketishlarini xohlamabdi. Mazkur fikr esa ovchilarga juda ma'qul kelibdi. Chunki yovvoyi cho'chqa ko'p bora ularning ta'zirini bergan ekan-da! Shu bois uni ko'rishga toqatlari yo'q ekan.

Yovvoyi cho'chqa tikuvchini ko'rishi bilan ko'zlari yonib, uni tilka-pora qilmoqchi bo'libdi.

Ko'pik sachrayotgan og'zini katta ochib, o'tkir tishlarini vahimali qayrab, unga tashlanibdi. Ammo epchil tikuvchi o'zini o'sha yerdagi butxonaning ichiga uribdi va shu zahotiyiq uning narigi tarafidagi derazadan sakrab chiqib ketibdi. Cho'chqa uning ketidan yugurib kirgan ekan, tikuvchi butxonani tezda aylanib o'tib, eshikni yopib olibdi. Shunday qilib tobora vajohati qaynayotgan hayvon «tuzoq»qa tushib qolibdi. U juda og'ir va katta bo'lganidan derazadan sakrab chiqib ketolmabdi. Tikuvchi qamab qo'yilgan yirtqichni ovchilar o'z ko'zlari bilan ko'rsinlar deb ularni chaqiribdi. O'zi esa podshoning oldiga ketibdi. Qirol endi istasa-istamasa va'dasiga amal qilib, qizini va yarim davlatini tikuvchiga berishga majbur bo'libdi. Agar qirol oldida turgan odam jasur qahramon emas, balki oddiy tikuvchi ekanini bilsa edi, bundan ham beshbattar bo'lar edi. Qirol katta to'y-tomosha qilib qizini tikuvchiga beribdi-yu, ammo xursandchilik kam bo'libdi. Shunday qilib, tikuvchi qirol bo'lib qolibdi.

Biroz vaqt o'tgandan keyin, bir kun kechasi, malika uyg'oq yotgan ekan, eri tushida uyqusirab, hadeb: «Hoy bola, menga bir ko'ylak tikib ber, shimimni yamab ber, bo'lmasa boshingga bir tushiraman», dermish. Shunda malika bu yosh janobning asli kim ekanligini bilib qolibdi, ertalab otasiga chiqib: «Meni bunday erdan qutqaring» deb arz-dod qilibdi. Qirol uni yupatibdi-da:

– Sen bugun kechasi uxlaydigan xonangning eshigini qulflama. Xizmatkorlarim eshikning tagida turishadi. Ering uxladi deguncha, uning qo‘l-oyog‘ini mahkam bog‘lab, uzoq mamlakatlarga jo‘naydigan kemanding ichiga tashlab kelishadi, – debdi.

Malika bundan xursand bo‘libdi. Biroq qirol soqchilaridan biri bu gapdan xabardor bo‘lgan ekan, oqizmay-tomizmay hammasini tikuvchiga yetkazibdi. Kechqurun odatdagi vaqtda ular o‘rinlariga kirib yotibdilar. Birozdan keyin malika uni uxladi deb o‘ylab, eshikni ochib kelibdi va yana joyiga qaytib kirib yotibdi. O‘zini uxlaganga solib yotgan tikuvchi qattiq qichqira boshlabdi:

– Hoy bola, menga bir ko‘ylak tikib ber, shimimni yamab ber, bo‘lmasa boshingga bir tushiraman! Men bir urganda yettitasini cho‘ziltiraman, ikki bahaybat odamni o‘ldirganman, o‘rmondagi yakkashoxni tutib kelganman, yovvoyi cho‘chqani qo‘lga tushirganman. Endi kelib-kelib eshik tagida turganlardan qo‘rqa-manmi!»

Buni eshitgan xizmatkorlar, orqalaridan bir to‘da lashkar quvgandek, ranglari o‘chib qochib ketibdilar. O‘shandan beri tikuvchiga hech kim til tekkiza olmabdi. U umrining oxirigacha qirol bo‘lib qolibdi.

Mundarija

Boʻron kampir	3
Omadli Hans.....	11
Qurbaqa shahzoda yoxud zanjirband Haynrix.....	20
Janob Korbes.....	29
Folbin hakim	32
Boʻtqali qozon.....	36
Yetti qargʻa.....	46
Sim-Sim togʻi	52
Boʻri bilan yetti uloqcha	56
Quyvon bilan Tipratikan	63
Qizil qalpoqcha	70
Botir tikuvchi.....	78

Adabiy-badiiy nashr

AKA-UKA GRIMM ERTAKLARI

BO'RON KAMPIR

Olmon xalq ertaklari

3-kitob

Ikkinchi nashri

Tarjimonlar: *X. Rahimov, G. Rahimova*

Muharrirlar: *B. Akbarov, M. Nurmetova*
Rassom G. O'rinova

Rassom-dizayner U. Sulaymonov

Texnik muharrir T. Xaritonova

Kichik muharrir M. Yakubjanova

Musahhih Sh. Hakimova

Kompyuterda sahifalovchi K. Goldobina

Nashriyot litsenziyasi AI № 158. 14.08.2009.

Bosishga 2018-yil 12-oktabrda ruxsat etildi.

Bichimi 60×84¹/₈. Ofset qog'oz. «SchoolBookC» garnituras.

Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 11,16.

Nashr tabog'i 4,29. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 18-483.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz

www.iptd-uzbekistan.uz

208000



Aka-uka
Grimm ertaklari

Bo'ron kampir



«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-28-286-5



9 789943 282865